

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

---

XAYRIDDIN SULTONOV, MURTAZO QARSHIBOYEV

# VATAN TUYG'USI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING  
**5**-SINFLARI UCHUN O'QUV QO'LLANMASI

*Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi  
nashrga tavsiya etgan*

*To'ldirilgan va qayta ishlangan 5-nashri*

TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2015

UO‘K 94(575.1)  
KBK 74.200.50  
S91

Ushbu qo‘llanma umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinflari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda Vatan va vatanparvarlik bilan bog‘liq bilim va tushunchalar Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» hamda «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitoblari asosida boyitilib, zamonaviy talablar ruhida yoritib berilgan.

UO‘K 94(575.1)  
KBK 74.200.50

Mas‘ul muharrir:

*falsafa fanlari nomzodi **Abdurahim Erkayev***

**Sultonov Xayriddin, Qarshiboyev Murtazo.**

S91 «Vatan tuyg‘usi»: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinflari uchun o‘quv qo‘llanma / Mas‘ul muharrir A. Erkayev. – 5-nashri. –T.: «Ma‘naviyat», 2015. – 112 b. Sarlavhada: O‘zR Xalq ta‘limi vazirligi I. Muallifdosh.

ISBN 978-9943-04-132-5

### SHARTLI BELGILAR:



– kalit so‘zlar



– diqqat bilan o‘qing



– bilib oling



– ijodiy fikrlang



– yodda tuting



– savollarga javob toping

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari  
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-04-132-5

© X. Sultonov, M. Qarshiboyev, 2015  
© «Ma‘naviyat», 2015

---

---

## KIRISH

Qadrli o‘quvchi, shu kunlarda mamlakatimizda Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan ommaviy tadbirlar, sayil va tomoshalar bo‘lib o‘tmoqda. Ona yurtimiz haqida, uning mustaqilligi to‘g‘risida go‘zal so‘zlar, she‘r va qo‘shiqlar eshitib, istiqlol naqadar buyuk ne‘mat ekanini barchamiz yurak-yurakdan his etmoqdamiz. Ana shu damlarda qalbimizda «Shunday ozod va obod Vatanga munosib farzand bo‘lish uchun qanday fazilatlariga ega bo‘lish lozim?», «Vatan tuyg‘usi, Vatanga muhabbat qanday ishlarda namoyon bo‘ladi?» degan savollar tug‘ilishi tabiiy, albatta. Bunday savollarga javob topishda «Vatan tuyg‘usi» darsligi sizga yordamchi va maslahatchi bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.



**Insonning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishida Vatan tuyg‘usi katta ahamiyatga ega.**

Xalqimiz, Vatanimiz sizning sog‘lom va barkamol bo‘lib o‘shingizni istaydi. Buning uchun mamlakatimizda, shahar va qishloqlarimizda zamonaviy maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari, tibbiyot, madaniyat, sport va san‘at maskanlari, yangi uy-joylar barpo etilmoqda.



**«Yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod deganda, biz O‘zbekistonning buyuk kelajagini nazarda tutamiz»<sup>1</sup>.**

Qalbida Vatan tuyg‘usi bo‘lmasa, odam haqiqiy inson bo‘lolmaydi, o‘zini o‘ta g‘arib va ojiz sezadi.

---

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Vatan va xalq mangu qoladi. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010-yil, 131-bet.



*Rasmlarga e'tibor bering! Ularda tasvirlangan samolyotlarning ikkalasi ham chiroyli. Ammo mamlakatimiz bayrog'i rangidagi samolyot alohida ajralib turibdi. U ko'zimizga bamisoli cho'g'dek yarqirab ko'rinmoqda. Buning sababi nima deb o'ylaysiz?*

Siz bugun o'rganishga kirishayotgan fanning asosiy maqsadi xalqimizga, yurtimizga fidoyi va sadoqatli yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

«Vatan tuyg'usi» fanining asoschisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovdir. Ushbu fan Yurtboshimizning 2001-yil 18-yanvarda imzolangan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi farmoyishiga asosan o'qitilmoqda.



**Hayotdagi barcha bilimlar Vatandan, uni o'rganishdan boshlanadi. Inson tug'ilib, avvalo Vatanning havosidan nafas oladi, Vatan ramzi bo'lgan onaning mehridan, oq sutidan bahramand bo'ladi.**

E'tibor bering, tilimizdagi aksariyat so'z va iboralar bitta, oshib borsa, bir nechta ma'noni bildiradi. «Vatan» so'zi esa butun umrimizning ma'nosini o'zida mujassam etadi. Shuning uchun Vatanni o'rganish hech qachon tugamaydigan, bir umr davom etadigan jarayondir.

Shu ma'noda, «Vatan tuyg'usi» fani Vatan haqidagi barcha bilimlarni qamrab olmaydi. Uning asosiy vazifasi – dunyodagi eng ulug' va muqaddas tuyg'u bo'lgan Vatan tuyg'usini tarixdan, bugungi hayotimizdan olingan misollar asosida sizning qalbingizga singdirishdan iborat.

Shuni unutmang, bu vazifani bajarishda ko'p narsa sizga, sizning tirishqoqligingizga bog'liq. Sizning har bir mavzuni diqqat bilan o'zlashtirib, maktabda boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz bilan mustahkamlab borishingizni istardik.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz qaysi fanlarga qiziqasiz?
2. Ushbu rasmlar bilan siz o'qigan matnda bog'liqlik bormi?



1



2



3



4

3. Sizning maktabingizda qanday sharoitlar bor? Siz ulardan qanday foydalanyapsiz?
4. Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?
5. Sizning sog'lom va barkamol bo'lib o'sishingiz haqida, avvalo kim g'amxo'rlik qiladi? O'zingiz buning uchun nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?



## ***Birinchi bob. ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM***

---

### **VATAN – YAGONA VA MUQADDAS**

Aziz o'quvchi, biz Vatan so'zini ko'p eshitamiz. Ona Vatanimizni chin dildan sevamiz. Lekin uni to'liq ta'riflab berishga qiynalamiz.



#### **Vatan – g'oyat ulug' va muqaddas tushuncha.**

Biz ona yurtimizni buyuk muhabbat bilan sevgan, butun hayotini uning mustaqilligi, kelajagi uchun baxsh etgan insonlarning Vatan haqidagi fikrlarini o'qisak, ko'p narsani tushunamiz.

Prezidentimiz Islom Karimovning Vatanimiz haqida ulkan mehr bilan aytgan fikrlariga e'tibor bering: **«Albatta, jahon – keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan»<sup>1</sup>.**

Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy Vatan haqida bunday degan:

**«Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi, tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx<sup>2</sup> bo'lub, har vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar».**

Ajdodlarimiz bu fikrlarni she'riy yo'l bilan ham ifoda etganlar. Atoqli shoir va ma'rifatparvar Sidqiy Xondayliqiyning mana bu satrlariga e'tibor bering:

---

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 90-bet.

<sup>2</sup> **Maishati talx** — turmushi achchiq.

Vatan nadir? Tuqqan yerim, turg'on yerim,  
O'sib-unib, o'ynab-kulib yurg'on yerim...  
Jonim – Vatan, tanim – Vatan, ko'zim – Vatan,  
Esdan chiqar oni ko'rgoch, ko'rgon yerim<sup>1</sup>.



*Aziz o'quvchi, ana shu uchta fikrdagi bir-biriga yaqin ma'noli iboralarni ajratib ko'rsata olasizmi? Masalan, «Bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagona» (birinchi fikr). «Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar» (ikkinchi fikr). «Jonim – Vatan, tanim – Vatan, ko'zim – Vatan, Esdan chiqar oni ko'rgoch, ko'rgon yerim» (uchinchi fikr).*

Mazkur iboralarning barchasida Vatanning yagonaligi, unga jonni fido qilish kerakligi aytilmoqda. Yana shunday o'xshash iboralarni topishga harakat qiling.

Vatan so'zining ma'nosi bugungi kunda juda keng. Hozirgi vaqtda vatan deganda faqat tug'ilgan makonni emas, avvalo o'zimiz yashayotgan, uning fuqarosi bo'lgan mamlakatni tushunamiz. Inson tug'ilgan, voyaga yetgan xonadon, mahalla, qishloq va shahar esa Vatan ichidagi kichik vatandır.



*«Mahalla» qadimiy so'z bo'lib, joy, odamlar jamoa bo'lib yashaydigan maskan degan ma'nolarni anglatadi. Tarixda hunarmandlar mahallasi, kulollar mahallasi, novvoylar mahallasi kabi mahallalar bo'lgan.*

Mahalla yaxshi-yomon kunlarda tashvish va muammolarni o'zaro kelishib, birgalikda hal qilish, mehr-oqibat ko'rsatib yashashda qo'l keladi.



**Ko'pchilik bo'lib, ixtiyoriy, xolislik bilan qilinadigan ezgu ishlar hashar deyiladi.**

<sup>1</sup> Vatan va millat muqaddasdir. T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2000-yil, 10-bet.

Hasharlar bugungi kunda yanada rivojlanib, har yili Navro‘z va Mustaqillik bayramlari arafasida mahallalarda, shahar va qishloqlarda, butun mamlakatimizda umumxalq hasharlari o‘tkazilmoqda.

Mustaqillikdan oldin mahalla idorasining faoliyati cheklab qo‘yilgan edi. Istiqolol yillarida mahallaga e‘tibor kuchaydi. Unga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idorasi maqomi berilib, huquq va vakolatlari qonun bilan mustahkamlandi.



**2003-yil mamlakatimizda «Obod mahalla yili» deb e‘lon qilindi.**



*«Qishloq» o‘zbekcha so‘z bo‘lib, qishlaydigan joy degan ma‘noni bildiradi.*

Qadimda ota-bobolarimiz bahor kelishi bilan dehqonchilik qilish uchun dalalarga yo‘l olganlar. Tog‘li va dasht joylarda esa mollarni boqish uchun qir-adir va yaylovlarga chiqilgan. Kuz kelib, hosil yig‘ib olingach, odamlar yana qishloqqa qaytib kelganlar. Qishni jamoa bo‘lib uylarda o‘tkazganlar. Bunday odatlar hozirgi vaqtda ham bor. Dehqonlar, cho‘pon-cho‘liqlar yoz mavsumi kirib kelishi bilan ish boshiga, ya‘ni dalalarga, qir-adirlarga chiqib ketadilar.



**«Ona Vatan degan ulug‘ va muqaddas tushuncha odamzot uchun go‘yoki qishloq timsolidan boshlanadi»<sup>1</sup>.**

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyodagi eng yirik shaharlar ham dastlab kichkina qishloq bo‘lgani, zamonlar o‘tishi bilan rivojlanib, katta shaharga, ba‘zan qudratli davlatga aylanib ketganini ko‘ramiz. Qadimda Yevropa qit‘asidagi ulkan imperiyaga asos bo‘lgan Rim shahri bunga misol bo‘la oladi.

Bugungi kunda xalqimiz iste‘mol qiladigan noz-ne‘matlarning asosiy qismi qishloqlarimizda yetishtiriladi. O‘zbekiston tabiatining

---

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta‘minlash – bizning oliy maqsadimiz. Asarlar, 17-jild. T.: «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009-yil, 61-bet.





eng go‘zal manzaralari — serviqor tog‘lar, yam-yashil qir-adirlar, bepoyon dalalar, zilol suvli buloqlar, soylar, rang-barang hayvonot dunyosini qishloqlarimizda ko‘rish mumkin. Ayniqsa, sodda va beg‘ubor, mehnatkash insonlar, ular asrlar davomida asrab kelayotgan milliy urf-odatlar qishloqlarimizga alohida fayz-u tarovat bag‘ishlaydi.



**2009-yil mamlakatimizda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e‘lon qilindi.**



*«Shahar» so‘zi obod joy, mamlakat, o‘lka, aholi tig‘iz yashaydigan makon degan ma‘nolarni anglatadi.*

Tarixda o‘lkamiz hududida avvalo qal‘a-shaharlar paydo bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan ular o‘zaro birikib, yirik davlatlarga aylangan. Birgina shahardan iborat bo‘lgan shahar-davlatlar bugungi kunda ham uchrab turadi. Masalan, Yevropadagi Vatikan shahar-davlati bunga misol bo‘la oladi. Lekin aksariyat davlatlar ko‘plab hududlar, shahar va qishloqlarni o‘z ichiga oladi.



**Buxoro. Ark**



**Xiva. Ichanqal'a**



*«Shahar» soʻzi oʻzbekcha «qoʻrgʻon», «kent», arabcha «qalʼa», «madina» soʻzlari bilan maʼnodosh hisoblanadi.*

Yurtimizda qadimiy va zamonaviy shaharlar koʻp. Ularning har biri bizning gʻurur-iftixorimizdir. Ularning timsolida biz Vatanimizning buyuk tarixi, bebaho moddiy va maʼnaviy merosi, bugungi taraqqiyot, madaniyat darajasi, xalqimizning bunyodkorlik dahosini koʻramiz.

Shuni bilingki, har qanday mamlakatdagi yangilanish va oʻzgarishlar, taraqqiyot belgilari uning yirik shaharlaridan, avvalo poytaxtidan boshlanadi.



**Toshkent 2007-yil «Islom madaniyati poytaxti» deb eʼlon qilindi. 2009-yilda Toshkent shahrining 2200 yillik tarixiy sanasi nishonlandi.**

Yurtimizda Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Toshkent, Margʻilon kabi tarixiy shaharlar bor. Bugungi kunda ular-

ning qiyofasi tobora ochilib bormoqda. Shuning uchun ham biz ularni «Qadimiy va hamisha navqiron shaharlar» deb ta'riflaymiz.



«Yurt», «diyor», «o'lka», «mamlakat», «respublika» «Vatan» so'zining ma'nodoshlari hisoblanadi.



**Vatanda yashash eng katta baxt. Vatandan judolik, vatangadolik ulkan fojia.**

Biz juda baxtli insonlarmiz – dunyoda tengi yo'q ozod Vatanda yashab, kamol topmoqdamiz. Yurtimiz boyliklari – bizning boyligimiz, uning yutuqlari – bizning yutug'imiz. Yagona Vatanimizga munosib farzand bo'lish muqaddas burchimizdir.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Qishlog'ingiz yoki mahallangiz qanday ataladi? Uning ma'nosini bilasizmi?
2. Rassom bo'lsangiz, Vatanning suratini qanday chizgan bo'lardingiz?
3. Vatan haqida to'rt qator she'r aytib bering.
4. Qaldirg'ochlar nima uchun har yili bahorda o'z inini adashmasdan topib keladi?
5. Rasmlarga qarab, insonlar va hayvonlardagi vatan tuyg'usi haqida gapirib bering.



1



2



3



4

6. Yurtimizdagi qaysi shaharlarni bilasiz?

## MUSTAQILLIK MAYDONI

Aziz o'quvchi, dunyodagi har bir mamlakat xalqi uchun g'urur-iftixor ramziga aylanib ketgan muqaddas maskanlar bo'ladi. Mustaqillik maydoni biz uchun ana shunday tabarruk maskandir. U poytaxtimiz Toshkent shahrining qoq markazida joylashgan.



**Mustaqillik maydoni 1991-yil 5-sentabrda Prezidentimiz Islom Karimovning farmoniga asosan tashkil etilgan.**



*Qani, ayting-chi, Mustaqillik maydoni mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng necha kundan keyin tashkil etilgan?*

Bu muazzam maydon ko'plab tarixiy voqealarga guvoh bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Vazirlar Mahkamasi, Prezident devoni kabi davlatimizning eng oliy idoralari aynan shu maydon atrofida joylashgan.



**Mustaqillik maydoni**



Toshkent metrosining «Mustaqillik maydoni» bekatidan g‘arb tarafga qarab yursak, avvalo oppoq ustun va peshtoqlari quyosh nurlarida porlab turgan Ezgulik arkasiga ko‘zimiz tushadi.



*«Arka» so‘zi tepasi yarim doira shaklidagi darvoza yoki shu ko‘rinishdagi hashamatli inshoot degan ma‘noni anglatadi.*

Arka buyuk tarixiy voqealar, zafarli yurish va g‘alabalar sharafiga bunyod etiladi. Fransiya davlatining poytaxti Parij shahrida imperator Napoleon davrida qurilgan Zafar darvozasi – Triumfal arka dunyoga mashhur.



**Ezgulik arkasi Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning ezgu intilishlari sharafiga barpo etilgan noyob obidadir.**

Arka tepasidagi mo‘jaz Yer shari uzra ko‘kka parvoz qilishga shaylangan turnalar tasvirlangan. Ular – tobora kuchga to‘lib, rivojlanib borayotgan O‘zbekistonimiz timsoli. Bir oyoqda turgan laylaklar esa tinchlik-osoyishtalik, yurtimizdagi qut-baraka ramzidir.

Mustaqillik maydonining to‘rida Mustaqillik va ezgulik monumenti qad rostlagan. Bu yodgorlik ikki qismdan – O‘zbekiston tasviri tushirilgan Yer shari va farzandiga mehr bilan termilib turgan Baxtiyor ona haykalidan iborat. Yer shari monumenti 1992-yili o‘rnatilgan. Undagi O‘zbekiston hududining tasviri yurtimizning mustaqil davlat sifatida dunyoda munosib o‘rnini topganini, istiqbolimiz abadiy ekanini bildiradi.

Vatanimiz ramzi bo‘lgan Baxtiyor ona haykali esa 2005-yili barpo etilgan. Ona o‘z farzandiga katta umid va ishonch bilan termilib, uning mustaqil yurtimiz uchun munosib farzand bo‘lishini tilab turibdi.





**Prezidentimizning 2006-yil 3-yanvardagi qaroriga binoan, Mustaqillik maydonidagi muazzam obidaga Mustaqillik va ezgulik monumenti deb nom berildi.**

Ezgulik arkasi bilan Mustaqillik va ezgulik monumentini yagona g'oya birlashtirib turadi. Ya'ni, ikkala obida ham xalqimizning ezgu maqsad-muddaolarini aks ettiradi.

El-yurtimiz ming yillar davomida ezgu orzu-umidlar bilan yashab kelgan. Bundan qariyb uch ming yillar oldin yaratilgan «Avesto» kitobida ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal inson hayotining asosiy qoidasi bo'lishi kerak, degan g'oya ifoda etilgan bo'lib, bu ham ajdodlarimizning juda qadim zamonlardan boshlab yaxshilikni umr ma'nosi deb bilganidan dalolat beradi.



**Xalqimizning ulug' maqsadlarini aks ettirgani uchun Mustaqillik maydonini Vatanimizning bosh maydoni deb ataymiz. Uning betakror qiyofasiga qarab, butun mamlakatimizni, xalqimizning qalbini, yuragini ko'rgandek bo'lamiz.**



**Mustaqillik va ezgulik monumenti**

Shuni bilingki, Mustaqillik maydonida barpo etilgan muhtasham monument va haykallar, ko'rkam xiyobon va majmualar, yashil hududlar, go'zal favvoralarining asosiy muallifi va tashabbuskori Prezidentimiz Islom Karimovdir.

Mustaqillikdan oldin bu maskan giyoh ham unmaydigan, faqat temir-beton bilan qoplangan ko'rimsiz va fayzsiz bir joyga aylanib yotar edi.

Bugungi kunda yurtimizning olisyaqindagi shahar va qishloqlaridan yurtdoshlarimiz, dunyoning turli mamlakatlaridan xorijiy sayyohlar katta havas va qiziqish bilan bu yerga kelib, Toshkentni, butun O'zbekistonimizni yangitdan kashf etgandek bo'lishadi.

Har yili Mustaqillik bayrami arafasida mamlakatimiz Prezidenti Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo‘yadi. Yurtimizga tashrif buyurgan chet el davlatlari, nufuzli xalqaro tashkilotlarning rahbarlari, mamlakatimiz jamoatchiligi vakillari ham Vatanimizga, xalqimizga yuksak hurmat ifodasi sifatida bu monument poyiga gul qo‘yib, maydonni aylanib, uning go‘zalligidan bahramand bo‘ladilar.

Mustaqillik maydonining sharq tomonida Sohibqiron Amir Temur bobomiz haykali va uning nomidagi go‘zal xiyobon, «O‘zbekiston» anjumanlar saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Simpoziumlar saroyi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, Yoshlar ijod saroyi, Tasviriy san‘at galereyasi, Biznes markazi singari bir-biridan chiroyli binolar, majmualar joylashgan.

Shimol tomonda Xotira maydoni, Motamsaro ona haykali, «Turkiston» saroyi kabi muazzam inshootlar qad rostlagan.

Janub tomonda esa Senat binosi va maydoni, Vazirlar Mahkamasi, Prezident devoni binolari, yam-yashil xiyobon ko‘zni quvontiradi.

G‘arb tarafda esa zilol suvli Anhor va uning sohilidagi so‘lim daraxtzorlar, yangicha qiyofa kasb etgan muazzam «Paxtakor» stadioni, u yerdagi turli sport o‘yinlari bilan shug‘ullanayotgan yoshlar e’tiborimizni tortadi.



**Motamsaro ona haykali**



**Tasviriy san‘at galereyasi**



**Yoshlar ijod saroyi**

Bir soʻz bilan aytganda, Mustaqillik maydonida turib, xalqimizning fidokorona mehnati bilan qilinayotgan ulkan ishlar, beqiyos oʻzgarishlarning yorqin ifodasini koʻrgandek boʻlamiz va bundan qalbimiz gʻurur-iftixorga toʻladi.

Istiqlol bizga necha asrlik tarixga ega boʻlgan ezgu ishlarimiz, qadriyat va anʼanalarimizni davom ettirish, dunyoda hech kimdan kam boʻlmasdan, erkin va farovon yashash imkonini berdi. Biz mustaqillik maydonida doʻstlarimiz, oila aʼzolarimiz bilan sayr qilar ekanmiz, bunga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Mustaqillik maydoni haqida ilgari nimalarni bilar edingiz?
2. Rasmga qarab, Ezgulik arkasining nechta ustuni borligini ayta olasiz?



3. Rasmlarga qarab, Baxtiyor ona va Motamsaro onaning yuz koʻrinishi haqida gapirib bering.



1



2

4. Mustaqillik haqida sheʼr yoki qoʻshiq bilasizmi?



## VATANNI ANGLASH

Aziz o'quvchi, Vatanni anglash uchun uni chin yurakdan sevish, ona yurt tarixi, uning bugungi taraqqiyoti, odamlari, tabiati haqida ko'p narsalarni bilish lozim.

Vatanning aniq bir hudud bilan bog'liq ekanini tan olmaydigan, «Biz uchun butun yer yuzi – vatan», deb yashaydigan odamlar ilm-fanda kosmopolitlar deb ataladi. Bunday zotlar aslida vatansizlik g'oyasini targ'ib qiladi. Bu g'oya zararlidir.

Ilm-fanda yana bir tushuncha – o'troq hayot degan ibora bo'lib, u Vatan tushunchasi bilan bog'liqdir.



*O'troq hayot bir joyda ildiz otib, aynan shu tuproqqa mehr qo'yib yashashni bildiradi.*

O'troq xalqlar dunyo madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan.



**Bizning xalqimiz qadim zamonlardan buyon o'troq hayot kechirib kelayotgan dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biridir.**



**Xiva. Kalta minor**



**Buxoro. Minorai kalon**



*Rasmlarga diqqat bilan qarang, doimo ko‘chib yuradigan xalq ana shunday qadimiy obidalarni yarata oladimi?*



**Samarqand.  
Sherdor madrasasi**

O‘lkamizning hamma joyida anjir o‘sadi, ammo ularning ichida Samarqand anjirining mazasi beqiyosdir. Buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahr viloyatlaridagi qovunlar haqida gapirib, Buxoro qovuni haqida alohida to‘xtaladi: «Buxoroda har jins qovundin ko‘p bo‘lur va yaxshi bo‘lur».

Bolalar qumda yoki tuproqda o‘ynayotganida loy qorib, uycharlar, minoralar yasashga harakat qilishadi. Bu esa o‘troq hayot bizning qon-qonimizga singib ketganini ko‘rsatadi.

Vatanning tabiati, yeri, suvi va havosi, musaffo osmonining o‘ziga xos xosiyati bor. Masalan, yurtimizning hamma joyida anor o‘sadi. Lekin hech yerning anori Quva yoki Shahrisabz anoriga teng kel-

### *Rivoyat*

## **SAMARQANDNING NONI**



Aytishlaricha, qadimda Bag‘dod podshosi Samarqandning noniga havas qilib, o‘z poytaxtida shunday mazali non yoptirmoqchi bo‘libdi. Shu maqsadda Samarqanddan eng mashhur novvoyni chaqirtirib, topshiriq beribdi. Samarqandlik usta o‘z shahridan tuproq keltirib, loy qorib, tandir yasash lozimligini aytibdi. Uning aytgani ado etilibdi. Usta Samarqanddan o‘tin olib kelish zarurligini bildiribdi. Bu istak

ham bajarilibdi. Samarqand suvi va unidan olib kelinib, xamir qorilibdi. Hamma narsa taxt bo‘lgach, podshoni xabardor qilibdilar. U novvoyga qarab: «Xo‘sh, hamma narsa tayyormi, bo‘lmasa, ishni boshla!» – debdi. Shunda novvoy uzr so‘rab, «Hazratim, hali hammasi taxt bo‘lgani yo‘q», debdi va aslida bu ishning imkonsiz ekaniga hukmdorning o‘zi ishonch hosil qilsin, degan niyatda oxirgi shartini aytibdi: «Hazratim, endi Samarqandning havosi bilan quyoshi bo‘lsa, bas, non yopishni boshlayman». Shunday deb, novvoy ham jazodan, ham imkonsiz ishning azobidan qutulib qolgan ekan.



*Aziz o‘quvchi, sizningcha, quyosh bilan havoni bir joydan ikkinchi joyga olib borish mumkinmi? Ota-bobolarimizning «Yerimiz, suvimizga duo ketgan» degan so‘zlarini qanday tushunasiz?*

Dunyodagi har bir xalq, el-u elatning o‘ziga xos yashash tarzi, milliy an‘analari ular makon tutgan joy bilan bog‘liq holda shakllanadi. Ya‘ni, ular aynan o‘troq hayot mahsulidir. Masalan, daryo va dengiz bo‘ylarida yashagan xalqlarning urf-odat va an‘analari cho‘l va sahro hududlarida istiqomat qiladigan xalqlarnikidan mutlaqo farq qiladi.



**«Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma‘no-mazmun bilan boyitadigan va to‘ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o‘zi mushkul bir muammo»<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 8-bet.

Vatanning o'ziga xos xususiyatlari, hatto, insonning yuz tuzilishi, chehrasida ham aks etadi. Masalan, o'zbekni yaponidan, arabni turkdan, lotin amerikalikni yevropalikdan yuzi va ko'ziga qarab farqlash mumkin.

Taqdir taqozosi bilan inson o'z yurtidan yiroqlarda yashab qoladigan bo'lsa, uning vujudida Vatanidan meros bo'lib kelgan tuyg'u va fazilatlar qayta uyg'onadi va uni ona diyori bag'riga da'vat etadi. Bunday holni ba'zida «Ota-bobolarimizning ruhi chorlamoqda» deb ham izohlaydilar. Sizning «Adabiyot» darsligingizda gurji yozuvchisi Nodar Dumbadzening «Hellados» – «Vatan» nomli hikoyasi bor. Unda insonga xos ana shu holat juda ta'sirli qilib tasvirlangan. «Hellados» Gretsiya davlatining qadimiy nomi. Uni qadimiy Ellada ham deydilar. E'tiborli jihati shundaki, bu hikoya Gretsiya haqida emas, balki yurakdagi Hellados – ko'ngildagi Vatan haqidadir.

Bizning buyuk ajdodlarimiz doimo Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan yashaganlar.



**«Chingizxon shunday bir mash'um kuch ediki, dunyodagi manaman degan qancha zotlar uning qarshisida tiz cho'kib, qulluq qilib yashashga tayyor edi. Muhammad Xorazmshoh<sup>1</sup> atrofidagi ko'plab beklar ham yov qo'liga taslim bo'lishni afzal ko'rganlarida, Jaloliddin bu fikrga qarshi chiqib, o'zining beqiyos jasorati va qat'iyatini namoyon etdi. Shu paytgacha mag'lubiyatga uchramagan mo'g'ul lashkariga qarshi o'n bir yil muttasil jang qildi. Va g'animlarga shunday qaqshatqich zarbalar berdiki, hatto Chingizxonday makkor va beshafqat, dunyoning yarmini zabt etgan fotih ham unga tan berishga majbur bo'ldi»<sup>2</sup>.**

<sup>1</sup> **Muhammad Xorazmshoh** – Xorazm hukmdori, Jaloliddin Manguberdining otasi.

<sup>2</sup> **Islom Karimov.** Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 2000-yil, 73-bet.

Insonni yurtidan, ona makonidan ayirish, uni o‘z uyida bezovta qilish eng katta gunoh hisoblanadi. Har bir insonning uyi – uning daxlsiz vatanidir. Shuning uchun, xalqimizning odatiga ko‘ra, kutilmaganda birovning uyiga borishga to‘g‘ri kelib qolsa, xonadon sohibidan uzr so‘raladi. Ajdodlarimiz nafaqat insonni, balki har qanday jonzotni vatanidan judo qilib qo‘yishni gunoh deb bilganlar.



**Urganch. Jaloliddin Manguberdi haykali**

*Rivoyat*

## CHUMOLINING VATANI

Alisher Navoiy bir anjumandan turiboq uyi tomonga shoshilib ketibdi. Keyin do‘stlari ul zotdan buning sababini so‘rabdilar. Alisher Navoiy javob beribdi: «Yo‘l-yo‘lakay bir chumoli kiyimimga ilashib, men bilan birga kelib qolgan ekan. Bechora vatanidan ayrilib qolibdi-ku, deb o‘z makoniga olib borib qo‘ymoqchi bo‘ldim. Shoshilganimning boisi shu edi».



*Birinchi darsimizdagi hayvonlarda ham vatan hissi bor, degan so‘zlar yodingizdami? O‘sha so‘zlarni bu rivoyat bilan solishtirib ko‘rib, fikringizni ayting.*

Dunyoda shunday yovuz kuchlar borki, ular butun-butun xalqlarni ham o‘z vatanidan judo qiladi. Masalan, mustaqillikdan oldin hukm surgan sho‘ro hokimiyati qrim tatarlarni o‘z yurtidan quvg‘in qilib, boshqa o‘lkalarga, jumladan, bizning diyorumizga ham ko‘chirtirib yuborgan. Buning oqibatida ular qariyb yarim asr vatanidan judo bo‘lib yashadi. Faqat sho‘ro imperiyasi yemirilganidan keyingina ular o‘z yurti – Qrim yarimoroliga qaytib bordilar. Xalqimiz ajdodlarimizning an‘analariga sodiq qolib, ularga eng og‘ir kunlarda hamdard bo‘ldi, o‘z bag‘ridan joy berdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida esa xalqimiz SSSRning fashistlar bosib olgan hududlaridan ko'chirib keltirilgan turli millatga mansub, qariyb 1 million och-nahor, kiyim-kechakka, boshpanaga, mehrga muhtoj aholiga tuz-nasiba, boshpana berdi. Ularning 200 ming nafari bolalar edi. Birgina Toshkent shahrining o'zida 2323 nafar yetim bolani yurtdoshlarimiz farzand qilib olganlar. Ular xalqimizning mehr-shafqati tufayli O'zbekistonga bir umr farzandlik muhabbati bilan bog'lanib qoldi. Bu insonlar yurtimizni o'zlari uchun haqiqiy Vatan deb bildilar.

El-yurtimizning bunday mehribonligi Vatanda yashash qanday buyuk baxt, vatansizlik naqadar ulkan fojia ekanini chuqur his etishidan dalolatdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Vatanni anglash inson uchun bir umr davom etadigan jarayon. Inson o'zini, qadr-qimmatini anglagani sari Vatanni ham tushunib, anglab boradi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz tez-tez mehmonga borib turasizmi?
2. Mehmonda o'zingizni qanday his qilasiz? Uyda-chi?
3. Qafasdagi qush bilan erkin uchib yurgan qush o'rtasida qanday farq bor?
4. Rasmlardagi uy hayvonlarining nomini ayting. Ularni nima uchun uy hayvonlari deymiz?



1



2



3



4

5. Sizning qishlog'ingiz yoki shahringizda qaysi meva daraxti ko'p va nima uchun?



## TINCHLIK – BEBAHO NE'MAT

Aziz o'quvchi, bizning mamlakatimizda go'zal, qadimiy va zamona-viy bayramlar ko'p. Ulardan biri 9-may – Xotira va qadrlash kunidir.



**Xotira va qadrlash kuni 1999-yildan buyon yurtimizda keng nishonlanib kelmoqda.**

Bu bayram Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan, el-yurtimiz ozodligi, ravnaqi yo'lida kurashib, mehnat qilib, dunyodan ko'z yumgan barcha insonlar xotirasini eslash, bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan urush va mehnat faxriylarini qadrlash maqsadida tashkil etilgan.



*«Xotira» so'zi eslash, yod etish, unutmagan yashash degan ma'nolarni bildiradi.*

Bu bayram kunlarida o'tganlar eslanib, ularning qabrlari ziyorat qilinadi, keksalar qutlanib, ularga sovg'alar beriladi, ezgu tilaklar bildiriladi.



*«Qadr» so'zi biron narsaning qimmatini va ahamiyatini to'g'ri baholab, unga hurmat-ehtirom ko'rsatib yashashni bildiradi.*

Ayniqsa, 9-may kuni Vatanimiz poytaxti – Toshkent shahrining markazida joylashgan Xotira maydoni alohida fayz-u tarovat kasb etadi. Erta tongdan bu yerda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, o'sha suronli yillarda front ortida jang qilgan yurtdoshlarimiz, mehnat faxriylari, jamoatchilik, davlat va nodavlat tashkilotlarning vakillari, mahalla faollari, yoshlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari to'planadi. Ziyoratgohga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashrif buyuradi. Davlatimiz rahbari urush va mehnat faxriylari, jamoatchilik vakillari bilan ko'rishib, ularni bayram bilan samimiy tabriklaydi.



Maydonning to'rida – sharqiy tarafida joylashgan Motamsaro ona haykali poyiga gul qo'yib, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan va-tandoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirish ushbu marosimning eng hayajonli qismi hisoblanadi.

Shundan so'ng maydonning shimoliy va janubiy tomonlarida barpo etilgan ayvonlardagi urushda halok bo'lganlarning familiyalari, tug'ilgan va vafot etgan yillari viloyatlar bo'yicha yozib qo'yilgan zarhal lavhalar ko'zdan kechirilib, marhumlar yana bir bor eslanadi.



**Davlatimiz rahbarining ommaviy axborot vositalari uchun intervyusi marosimning eng muhim voqeasi hisoblanadi.**

Yurtboshimizning 2013-yil 9-maydagi intervyusi «O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» degan da'vatkor so'zlar bilan ko'pchilikning esida qoldi. Ayni shu nom bilan kitob holda nashr qilingan mazkur intervyuda, avvalo Ikkinchi jahon urushida erishilgan g'alaba xalqimiz uchun naqadar qimmatga tushgani ta'kidlandi.



**Urushdan oldin O'zbekistonda 6,5 millionga yaqin aholi yashagan, shundan 1,5 milioni janglarda ishtirok etgan. Yurtdoshlarimizdan 500 mingga yaqini urushda halok bo'lgan. Qancha odam bedarak ketgan yoki mayib-majruh bo'lib qaytgan.**



*Olti yarim million odamning yarmidan ko'pini bolalar, keksalar tashkil etsa, mehnatga layoqatli aholining qanchasi urushda qatnashgan? Urushga ketganlarning o'rniga mehnat qilish kimning yelkasiga tushgan?*



Afsuski, bugungi kunda dunyoda, yon-atrofimizda turli ziddiyat va mojarolar saqlanib qolayotgani, terrorizm, ekstremizm xavfi kuchayib borayotgani, fashizm degan ofat yana bosh ko'tarayotgani odamzot hali ham tarixdan zarur xulosalar chiqarmaganini ko'rsatadi.

Afg'onistonda o'ttiz besh yildan ziyodirki, urush davom etmoqda. Bu esa yurtimizdagi, dunyodagi tinchlik va barqarorlikka jiddiy xavf solmoqda. Urush davrida bu mamlakatda tinch hayot nima ekanini bilmaydigan bir avlod voyaga yetdi.



**«Bizga tinchlik kerak degan da'vat bugun butun xalqimiz uchun yagona da'vat bo'lishi lozim. O'zbekistonga tinchlik kerak, osuda hayot kerak. Taraqqiyotimiz uchun bironta ham to'siq kerak emas»<sup>1</sup>.**



**Xalqimiz duoga qo'l ochganida, Yaratgandan avvalo tinchlik, omonlik bo'lishini so'raydi. Bu ikki so'z el-yurtimizning ong-u shuuriga singib, hayotining mazmuniga, milliy qadriyatga aylanib ketgan.**

Vatandoshlarimiz boshi uzra charaqlab turgan oftobni, musaffo osmonni tinchlik-osoyishtalik, farovonlikning eng muhim belgisi deb biladi.



*Tinchlik bo'lgan joyda taraqqiyot bo'ladi. O'zaro hurmat, hamjihatlik bo'lmagan yerda hech qachon rivojlanish bo'lmaydi.*



**Tinchlik osmondan tushmaydi. Mustaqil taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning asosi bo'lgan tinchlik-osoyishtalik uchun kurashish, kerak bo'lsa, bu yo'lda fidoyilik ko'rsatish lozim.**

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak. T.: «O'zbekiston», 2013-yil, 27-bet.



**Tinch-osoyishta hayot, barqarorlikning eng muhim sharti – begʻamlilik va beparvolikka yoʻl qoʻymasdan, doimo ogoh, har tomonlama sezgir va uygʻoq boʻlish, tarixdan, hayotdan xulosa chiqarib yashashdan iborat.**

Prezidentimiz kitobida ana shunday qarash, kayfiyat barcha vatandoshlarimizning hayotiy maqsadiga aylanishi lozimligiga alohida urgʻu berilgan.

Aziz oʻquvchi, ushbu asarning qisqacha mazmunidan ham koʻrib turibsizki, unda juda muhim va dolzarb fikrlar ilgari surilgan. Ana shu maqsad va vazifalarni amalga oshirishga hissa qoʻshish uchun siz avvalo yaxshi oʻqishingiz, vaqtingizni bir zum ham bekor oʻtkazmasdan, tinimsiz izlanishingiz, ota-onangiz, el-yurtimiz xizmatiga doimo shay boʻlib, ona Vatanimizni chin dildan sevib yashashingiz kerak.



#### *Savol va topshiriqlar:*

1. Xotira va qadrlash kunida siz avvalo kimni tabriklaysiz?
2. Tinchlikning qadrini qanday tushunasiz?
3. Sizning ajdodlaringiz orasida urush yoki mehnat faxriylari bormi? Ular haqida soʻzlab bering.
4. Rasmlarda tinchlik belgilari qanday aks ettirilgan?



1



2



3



4

---

---

## VATAN TUYG‘USI

Aziz o‘quvchi, insonning his-tuyg‘ulari ham u yashayotgan joy bilan bog‘liq.

Siz ingliz yozuvchisi Kiplingning «Maugli» asari asosidagi kino-filmni ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. Unda yosh bolaning o‘rmondagi hayvonlar orasida yashab, his-tuyg‘ulari o‘zgarib ketgani haqida hikoya qilinadi.



**Vatan tuyg‘usi insonga bir umr hamroh, hamnafas bo‘ladi.**

Vatanning nomi aytilishi bilan uning bag‘rida o‘tgan yillarimiz, ota-onamiz, qadr-don uyimiz esimizga tushadi, qalbimiz shirin his-tuyg‘ularga to‘ladi.

Yurtimizning betakror tabiatini tomosha qilganda, uning boyliklaridan bahramand bo‘lganda, olis ellarda vatandoshlarimiz bilan ko‘rishganda, ularning sport, madaniyat, san‘at va boshqa sohalarda erishgan yutuqlarini eshitganda, beixtiyor quvonamiz.

Vatan tuyg‘usi insonga ona allasi, bobolar o‘giti, otaning ibrati, oila, maktab tarbiyasi, ta‘lim, ona tabiat bilan muloqot jarayonida singadi. Vatan tuyg‘usi og‘ir damlarda bizga kuch-quvvat beradi, xalqimizni, yurtimizni dunyoga tanitishga, ajdodlarimizning buyuk an‘analariga sodiq bo‘lishga da‘vat etadi.

Odatda, insonlar chet davlatga bormoqchi bo‘lsa, o‘zi bilan birga Vatanini eslatib turadigan, o‘zi uchun qadrli bo‘lgan narsani oladilar. Ota-bobolarimiz uzoq o‘lkalarga ketayotganlarida yurt tuprog‘idan bir siqim olib, ro‘molchaga tugib qo‘yganlar. Olis yurtlarda Vatan sog‘inchi yuraklarini o‘rtaganida ana shu tuproqni hidlab, ko‘zlariga to‘tiyo qilib, qadr-don diyorimiz mehrini, nafasini tuyganlar.



Ulug' insonlar qalbidagi Vatanga intilish tuyg'usi shunchalik kuchli bo'ladiki, ular nafaqat tirikligida, balki bu dunyodan ko'z yumganidan keyin ham ona yurt tuprog'iga yaqinroq bo'lishni orzu qiladilar. Uzoq Hindiston o'lkasida podsholik qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz vafotidan so'ng o'z jismini ushbu yurtga emas, balki Vataniga yaqinroq bo'lgan joy – Afg'onistonning hozirgi poytaxti bo'lmish Kobul shahriga qo'yishlarini vasiyat qilgan. Bu buyuk ajdodimizning muborak qabri hozir Kobul shahrida.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng Bobur tug'ilgan yurt – Andijon shahrida buyuk ajdodimizning ramziy qabri barpo etilib, uning atrofida ulkan bog' yaratildi.



*Vatan tuyg'usi insondagi vorisiylik tuyg'usi bilan uzviy bog'liq. Vorisiylik eng muhim xususiyat va qadriyatlarning otadan bolaga, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tishini bildiradi.*

Hozirgina tilga olganimiz Bobur bobomizning vorislari – boburiylar sulolasining aksariyat namoyandalari ota-bobolarining yurti – O'zbekiston zaminida yashamagan bo'lsalar-da, vatan tuyg'usi ularni bu tabarruk tuproqqa chorlab turgan. Ularning bugungi avlodlari ham mana shu zaminni o'zlariga tarixiy Vatan deb biladilar.

Tarixiy Vatan tuyg‘usi boshqa xalqlarga ham xos. Masalan, hozirgi kunda Amerika qit‘asida yashayotgan xalqlarning ota-bobolari qadimda Yevropadan ko‘chib borgan. Shuning uchun bu xalqning bugungi avlodlari Yevropa mamlakatlarini o‘zining tarixiy vatani deb hisoblaydilar.

Ota-bobolarimiz vorisiylik an‘analarini saqlash uchun o‘zlarining nasl-nasab tarixi – shajarasini yozib borganlar. Bu ham Vatanga muhabbat, uning tarixini muqaddas saqlashga bo‘lgan intilishning bir ko‘rinishidir.

Siz Vatanimizdan yetishib chiqqan allomalar haqida ko‘p eshitgansiz.



**Andijon. Zahiriddin Muhammad Bobur haykali**



*«Alloma» arabcha so‘z bo‘lib, olimlarning olimi, eng yetugi, degan ma‘nolarni bildiradi.*

Ulug‘ allomalarimiz Vatan tuyg‘usi har ishda, har qadamda madadkor bo‘lsin deb, o‘z ismi shariflariga tug‘ilgan joylarining nomini qo‘shib yozganlar. Buxoriy, Zamaxshariy, Samarqandiy, Shoshiy, Toshkandiy, Farg‘oniy, Marg‘inoniy, Xorazmiy, Termiziy, Nasafiy singari nomlar shu tarzda paydo bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida ana shu allomalarimizning ilmiy merosini chuqur o‘rganish va dunyo miqyosida targ‘ib etish bo‘yicha juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2014-yilning 15–16-may kunlari Samarqand shahrida «O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiya shular jumlasidandir.

## «MOBIL TELEFON ICHIDAGI O‘ZBEK»



Dunyoga mashhur Bi-bi-si kompaniyasi ulug‘ vatandoshimiz Muhammad Xorazmiy haqida 10 daqiqalik filmni suratga oldi. Unda alloma bobomizning matematika sohasidagi ulkan kashfiyotlari, xususan, o‘nlik pozitsion hisoblash tizimi va nol belgisini birinchi bo‘lib ilm-fanga joriy etgani, «algoritm» so‘zi al-Xorazmiy nomidan olingani haqida hikoya qilinadi. Bi-bi-si sharhlovchisi qo‘lidagi mobil telefonni ko‘rsatib: «Men har safar bundan foydalanganimda uning ichida o‘tirgan Buyuk o‘zbekka ta‘zim qilaman», – deb ta‘kidlaydi. Bu so‘zlari bilan u Xorazmiy bobomiz matematika olamidagi buyuk yangiliklari bilan mobil telefon kabi bugungi axborot vositalariga taxminan 12 asrlar oldin asos solganini minnatdorlik bilan e‘tirof etadi.

Ana shunday e‘tirof va minnatdorlik so‘zlarini Samarqandda o‘tkazilgan xalqaro konferensiya kunlari xorijlik mehmonlar tomonidan takror va takror bayon qilindi.



*Globusni kim kashf etganini bilasizmi? Har safar globusdan foydalanganimizda qaysi ajdodimizga ta‘zim qilishimiz kerak?*

Aziz o‘quvchi, siz ingliz adibi Daniel Defoning Robinzon Kruzo haqidagi mashhur asari asosida yaratilgan filmni ko‘rgansiz. Uning qahramoni o‘z Vatandan yiroqda, yolg‘izlikda qiynaladi. Kimsasiz orolga tushib qolgan bu odam insonlik qiyofasini saqlab qolish uchun tinimsiz harakat qiladi va oxiri yolg‘izlikni yengadi. Hech shubhasiz, bunda unga Vatan tuyg‘usi yordam beradi.



**Yurt mustamlakachilik zulmi ostida qolgan paytda Vatan tuyg‘usi Vatan qayg‘usiga aylanadi.**



Diyorimizda qariyb 130 yil davom etgan mustamlakachilik davrida ota-bobolarimizning yurt bilan bog‘liq his-tuyg‘ulari faqat qayg‘u shaklida namoyon bo‘lar edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi ajdodlarimizning ulkan hasrat bilan yozilgan maqola va she‘rlarini o‘qiganda, Vatan tuprog‘ida turib, Vatandan judolik dardi bilan yashash qanchalik og‘ir dard ekanini his etamiz.



El-yurt ozod, mamlakat mustaqil bo‘lsa, inson uning ravnaqi yo‘lida bor kuch-qudratini safarbar etadi, Vatan bilan bog‘liq hislari g‘urur-iftixor tuyg‘usiga aylanadi. Bugun Vatanimiz haqida gap ketsa, biz, avvalo, ana shunday g‘urur-iftixor hislarini tuyamiz. Chunki, yurtimiz ozod va obod bo‘lib, kundan kunga taraqqiy etib bormoqda.



**Vatan tuyg‘usi vatanparvarlik fazilatlariga asos bo‘ladi.**



**«Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. Ya‘ni, inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi»<sup>1</sup>.**



*Vatanparvarlik ona yurtni sevish va ulug‘lash, uni himoya qilish hissi bilan yashash, shu yo‘ldagi fidoyilikdir.*

*Fidoyilik o‘zini, bor kuch-g‘ayrati va aql-zakovatini ezgu va buyuk maqsadlar yo‘lida to‘la safarbar etish demakdir.*

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2000-yil, 8-jild, 502-bet.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz mobil telefoningizdan foydalanganingizda uni kim kashf etgani haqida o'ylab ko'rganmisiz?
2. Siz chet elga sayohatga chiqsangiz, o'zingiz bilan nimalarni olgan bo'lardingiz?
3. Vatan tuyg'usi haqida she'r yoki qo'shiq bilasizmi?
4. Rasmlarga qarab vatanparvarlik haqida gapirib bering.



1



2



3

### *Amaliy mashg'ulot*

## **BU MUQADDAS VATANDA AZIZDIR INSON**

Aziz o'quvchi, yurtimizda yer osti, yer usti boyliklari, qadriyat va an'analar ko'p. Lekin biz uchun yanada buyuk boylik borki, u o'z mehnati, bilimi, iste'dodi va tajribasi bilan tuprog'imizni oltinga aylantirib, shahar-qishloqlarimizni obod etayotgan insonlardir.



**Inson zotini Ollohning o'zi aziz va mukarram qilib yaratgan. Har bir inson — buyuk bir mo'jiza. Dunyodagi barcha xalq va millatlar ham Yaratganning buyuk mo'jizasi sifatida hurmat-ehтиromga munosibdir.**

Afsuski, tarixning hamma davrlarida ham inson munosib qadr-qimmat topmagan. Ayniqsa, mamlakat bosqinchilar zulmi ostiga yoki jaholat domiga tushib qolgan paytda, avvalgi darsimizda aytilganidek, Vatan tuyg'usi qayg'uga aylanadi, insonlar e'zozlanish o'rniga tazyiq va ta'qiblarga, ba'zan hatto ommaviy qirg'inlarga duchor etiladi.



Ona diyorimiz ham necha bor yovuz bosqinchilar hujumini boshidan kechirgan. Masalan, miloddan oldingi asrlarda Eron shohlari Kir va Doro, yunon qo‘shini, XII asrda esa mo‘g‘ul bosqinchilari yurtimiz tuprog‘iga bostirib kelgan. El-yurtimiz ularga qarshi mardona kurashib, har safar ozodlikka erishgan.

Jahondagi qudratli davlatlarning armiyasi turli o‘lkalarni zabt etishi, o‘ziga qaram qilishi mumkin, ammo ular hech qachon xalqlarning qalbini, ruhini zabt eta olmaydi. Shuning uchun dunyodagi qaysi davlat haqida gap ketsa, avvalo bu yurtning olimlari, shoir va mutafakkirlarini esga olamiz. Chunki ular insoniyatga beminnat xizmat qilganlar.

XIX asrning 60-yillari o‘rtalaridan boshlanib, XX asrning 91-yiligacha, qariyb 130 yil davom etgan chor Rossiyasi va sho‘rolar mustamlakachiligi xalqimiz boshiga ko‘plab og‘ir sinov va musibatlar keltirdi.

## TARIXNING ENG QORA SAHIFASI

Biz sho‘rolar zamonini yaqin tariximizning eng qora, iztirobli sahifalari sifatida esga olamiz.



**«Ma’lumki, 1937–1953-yillarda sobiq SSSR hududida mudhish ommaviy siyosiy qatag‘onlar amalga oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o‘zimizga tasavvur etish uchun birgina O‘zbekiston bo‘yicha qariyb 100 ming kishi qatag‘onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya»<sup>1</sup>.**



*Bu fikrlarda keltirilgan misollarni bugungi hayotimiz bilan solishtiring. Bugungi hayotimizni tarixning qanday sahifasi sifatida baholash mumkin?*

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 97–98-betlar.

Sho‘ro tuzumidagi zulm-zo‘ravonliklar 1989-yilning iyun oyigacha – Islom Karimov O‘zbekiston rahbari sifatida ish boshlaguniga qadar davom etdi.



**Yurtimiz og‘ir ahvolga tushib qolgani, bundan qutulish uchun respublikamiz rahbari katta jasorat bilan kurash olib borgani haqida Prezidentimiz Islom Karimovning «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobida atroflicha hikoya qilinadi.**

Istiqlolning birinchi yillaridan boshlab mamlakatimizda «Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun» degan qoida bosh mezon qilib olindi. Buning ma‘nosi shuki, islohotlar inson hayotini yaxshilashga xizmat qilishi kerak.



**Inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat ekani Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan.**



**Shahidlar xotirasi xiyoboni**

Mustamlakachilik yillarida nohaq jabr koʻrgan insonlarga nisbatan tarixiy adolatni, buyuk ajdodlarimizning muborak nomlari va xotirasi, bebaho merosini tiklashga alohida eʼtibor berilmoqda. Masalan, 2000-yilda poytaxtimizning Yunusobod tumanida «Shahidlar xotirasi xiyoboni» yodgorlik majmuasi barpo etildi. Keyinchalik shu nomda jamgʻarma va Qatagʻon qurbonlari xotirasi muzeyi tashkil qilindi.



«Qatagʻon» soʻzi kesmoq, qatl etmoq, oʻldirmoq degan maʼnolarni bildiradi.

Bir paytlar bu yerda, yaʼni Boʻzsuv kanali sohilida Alvastikoʻprik deb qoʻrqinchli nom olgan jarlik boʻlgan. XX asrning 30-yillarida ana shu ovloq joyga kechalari xalqimizning koʻplab asl farzandlari mashinada yashirincha olib kelingan va shafqatsizlarcha otib tashlangan. Soʻngra kafansiz, nom-nishonsiz koʻmib yuborilgan.



**31-avgust yurtimizda Qatagʻon qurbonlari xotirasini yod etish kuni sifatida nishonlanadi.**

Har yili 31-avgustda Prezidentimiz bu yerga tashrif buyurib, qatagʻon qurbonlari xotirasiga hurmat bajo keltiradi.

Bugungi kunda yurtimizda tinch va osoyishta hayot, turli millat va elat vakillari oʻrtasida doʻstlik va hamjihatlik muhiti mustahkamlanib bormoqda. «Bu muqaddas Vatanda azizdir inson» degan soʻzlar amaliy maʼno-mazmunga ega boʻlib bormoqda.

Hozirgi vaqtda chetdan turib hayotimizni izdan chiqarishga urinadigan, oʻlkamiz boyliklariga egalik qilib, xalqimizni yana qaram qilmoqchi boʻlgan yovuz kuchlar ham, afsuski, yoʻq emas. Bunday xavf-xatarlar xalqaro terrorism, ekstremizm, diniy aqidaparastlik, axloqsizlik degan nomlar bilan ataladi. Albatta, butun dunyo boʻylab ildiz otgan, odamlar, ayniqsa yoshlarni tuzoqqa tushirib, ularni oʻz yurti, ota-onasiga qarshi qayrashga intiladigan bunday kuchlardan ogoh boʻlib, Vatanimiz mustaqilligini koʻz qorachigʻidek asrab yashash barchamizning muqaddas burchimizdir.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Insonlar bir-biri bilan nima uchun xursand bo‘lib ko‘rishadi?
2. Chaqaloq tug‘ilsa nega quvonamiz?
3. Insonning hurmatini joyiga qo‘yishga qaratilgan qanday urf-odatlarimizni bilasiz? Rasmlarga qarab, ular haqida gapirib bering.



1



2



3

4. Siz ota-onangiz, ustozlaringiz va o‘rtoqlaringizga hurmatingizni qanday ifoda etasiz?
5. Insonning azizligi haqida qanday maqollarni bilasiz?



---

---

## OILA – VATAN TIMSOLI

Aziz o‘quvchi, agar «Vatanning rasmini chizib bering», desalar, avvalo nimaning tasvirini qog‘ozga tushirgan bo‘lardingiz? Buning uchun avvalo o‘zimiz bilgan narsalarni ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazamiz. Shunda biz uchun eng qadrdon va tushunarli maskan o‘zimiz tug‘ilib-o‘sgan xonadonimiz bo‘lib ko‘rinadi.



**Vatan tuyg‘usi oiladan, ona bag‘ridan boshlanadi.**

Insonni voyaga yetkazadigan, unga eng go‘zal tuyg‘ularni singdiradigan, uning ong-u shuurida dastlabki bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradigan makon oiladir.



**«Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega»<sup>1</sup>.**



Prezidentimiz Islom Karimov oilaga bunday ta’rif bergan: **«Bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne‘mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi»<sup>2</sup>.**

Qadimiy rivoyatlarga ko‘ra, yer yuzidagi birinchi oila Odam Ato va Momo Havo tomonidan barpo etilgan. Dunyodagi odamlar, xalqlar va millatlar ana shu oiladan tarqalgan ekan. Shuning uchun

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 63-modda. T.: «O‘zbekiston», 2014-yil, 21-bet.

<sup>2</sup> **Islom Karimov**. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 56-bet.



insoniyatni bir ota-ona farzandlari deymiz, ularni do‘st va birodar bo‘lib yashashga chaqiramiz.

Go‘dak ko‘z ochib dunyoga kelganidan so‘ng avvalo onasini taniydi hamda uning bag‘ridan panoh va rizq topadi. Onaning ko‘ksida tinch va osoyishta uxlaydi, orom oladi. Inson oilada o‘zini erkin va ozod sezadi. «O‘z uyim – o‘lan to‘shagim» degan maqolimiz aynan shuni nazarda tutib aytilgan.



**Dunyodagi hamma narsaning asosi bo‘lganidek, oilaning ham tayanch ustunlari bo‘ladi. Ular – ota bilan onadir.**

Ona mehr-muhabbat, ezgulik va fidoyilik ramzi. Uni Vatanga qiyoslaymiz. Vatanni ta‘riflaganda avvalo «Ona Vatan» deymiz. Ona va Vatan haqidagi taassurotlar bir-biriga o‘xshab ketadi. Vatan ham, ona ham farzandining baxti uchun hech narsani ayamaydi. Shuning uchun ham Vatanimizning bosh maydoni bo‘lgan Mustaqillik maydoniga «Baxtiyor ona» haykali o‘rnatilgan.

Onaning allasida Vatan tuyg‘usi bosh mavzudir. Allada «katta bo‘lgin», «el-yurtingga xizmat qilgin» deb kuylanishi bejiz emas.





**Ona allasi bilan birga bolaning qalbiga milliy ruh kiradi.  
Bu milliy ruh – Vatan tuygʻusidir.**

*Rivoyat*

## IMOM BUXORIYNING ONASI

Rivoyat qilishlaricha, Ismoil oʻgʻli Muhammad Buxoriyning koʻzi goʻdaklik paytida bir baxtsiz tasodif tufayli ojiz boʻlib qolgan ekan. Onasi bolamning koʻziga shifo ber, deya kechasi-yu kunduzi Ollohga iltijo qilar ekan. Bir kuni onaning tushiga paygʻambar Ibrohim alayhissalom kiribdi va unga: «Duolaring qabul boʻldi, oʻgʻling shifo topadi», – deb bashorat qilibdi. Shundan soʻng yosh Muhammadning koʻzi ochilibdi. U oʻz hayotini paygʻambarimiz Muhammad alayhissalom hadislarini toʻplashga bagʻishlashga qaror qilibdi va buyuk hadisshunos boʻlib yetishibdi.



*Onasi duo qilmasa, Imom Buxoriy butun dunyoga tanilarmidi?*



**Yurtimizda 1998-yil – «Oila yili», 2001-yil – «Onalar va bolalar yili», 2012-yil esa «Mustahkam oila yili» deb eʼlon qilindi.**

Oilaning yana bir ustuni otadir. Ota – oila boshligʻi, uyda adolat timsoli boʻlib, barchaga ibrat va namuna koʻrsatadigan zotdir. Qadimda biror-bir farzand yaxshi yoki yomon xulqi bilan jamoatchilik eʼtiborini tortsa, darhol undan: «Otang kim, kimning bolasisan?» – deb soʻrganlar. Chunki, otaning kimligi farzand haqidagi eng muhim baho hisoblangan.

Odatda, oʻgʻil bolalar otaga, qizlar esa onaga taqlid qiladi. Shuning uchun oʻgʻillar haqida gap ketsa, «Ota oʻgʻil», qizlar haqida gap ketsa, «Ona qiz» deyдилar.

## TOMGA CHIQMAGAN BOLA

Qadimda bir bolaga onasi: «Bolam, tomga chiqib, o‘tin olib tushsang»,— debdi. Bu paytda bolaning otasi uyda uxlayotgan ekan. Shuning uchun bola: «Otam yotgan uyning tepasiga qanday chiqaman»,— deb, otasining uyqudan uyg‘onishini kutgan ekan.



*Bola otasi sezmaydigan darajada sekinlik bilan tomga chiqsa bo‘lasmidi?*



Oilada «ota kasbi» degan tushuncha bor. Farzand ota kasbini egalasa, odamlar «Otasining qo‘lini olibdi», «Otasining davomchisi bo‘libdi», deb undan xursand bo‘ladi.

Ota kasbini davom ettirish asosida mashhur sulolalar paydo bo‘lgan. Masalan, mamlakatimizda san‘at sohasida Yunus Rajabiy asos solgan rajabiyalar sulolasi, sirk sohasida toshkentboyevlar sulolasi va boshqa sulolalar bor.

Bunday sulolalar tarixda ham ko‘p bo‘lgan. Masalan, yurtimizda temuriylar sulolasi, boburiylar sulolasi, Hindistonda gandilar sulolasi nomi ma‘lum-u mashhur. Bunday sulolalar oilaviy an‘analarini ulug‘lash orqali Vatanni ulug‘lashga xizmat qiladi.



*Tarbiya insonning sog‘lom va barkamol bo‘lib o‘sishi, hayotga tayyor bo‘lishi uchun kerakli bilim va ko‘nikmalarni tushuntirish, o‘rgatish va ibrat asosida singdirib borish yo‘lidir.*

Oilada katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan bobolar va momolarning o‘giti, pand-nasihatlari ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.



Xalqimiz: «Qush uyasida koʻrganini qiladi»,— deydi. «Uya» deganda bogʻcha yoki maktab emas, oila nazarda tutilayotgani uning inson tarbiyasidagi taʼsiri naqadar katta ekanini anglatadi.



Qarshi. «El-yurt tayanchi» haykali

**Jamiyat minglab oilalardan tashkil topadi. Shuning uchun oilani jamiyat negizi, uning asosiy boʻgʻini, deymiz.**



*Jamiyat — uyushib yashashning yuksak shakli. Chunki, unda nafaqat odamlar, balki turli guruhlar, toifa va qatlamlar ham birlashadi.*

Mustaqillik yillarida yurtimizda birinchi bor Qarshi shahrida «El-yurt tayanchi» degan nom bilan oilaga haykal qoʻyildi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Ertalab oilada avvalo kimga salom berasiz?
2. Onangiz sizga qanday alla aytganini eslaysizmi?
3. «Ota rozi — Xudo rozi» degan maqolni qanday tushunasiz?
4. Ona haqida toʻrt qator sheʼr aytib bera olasizmi?
5. Rasmlarga qarab, oilaning inson tarbiyasiga taʼsiri haqida gapirib bering.



1



2



3

## JAJJI CHEMPIONLAR

Aziz o'quvchi, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda sportning ahamiyati katta. Shuning uchun mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.



**O'zbekistonda 2002-yili Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaning Homiylik kengashi raisi mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovdir.**

Mamlakatimiz sportchi yoshlari nufuzli xalqaro musobaqalarda katta yutuqlarga erishmoqda. Ayniqsa, aql gimnastikasi bo'lmish shaxmat bo'yicha yurtimizdan ko'plab yosh chempionlar yetishib chiqmoqda.



**Nodirbek Abdusattorov 8 yoshida Sloveniyaning Maribor shahrida shaxmat bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi.**



Nodirbek 2004-yili Toshkent shahrida tug'ilgan, Yashnobod tumanidagi 152-maktabda ta'lim oladi. U 2008 va 2010-yillarda O'zbekiston chempioni, 2011 va 2014-yillarda Osiyo chempioni bo'lgan.

Aka-uka shaxmatchilar Javohir va Islombek Sindorovlarning nomlari ham ko'pchilikka tanish. Odamdan kuchli aql-zakovat, qunt va chidam talab qiladigan shaxmat sohasida jahon chempionlari bo'lgan bu jaji o'g'lonlarimiz erishgan katta g'alaba butun xalqimizda cheksiz g'urur va iftixor uyg'otdi.



**Javohir va Islombek 2014-yilning 13–17-iyun kunlari Gretsiyaning Kavala shahrida o'tkazilgan tezkor shaxmat bo'yicha jahon chempionatida rapid va blits yo'nalishlari bo'yicha 4 ta oltin medalni qo'lga kiritdi.**

Yosh shaxmatchi do‘stlarimiz dunyoning ko‘plab davlatlaridan vakillar ishtirok etgan musobaqalarda biror marta ham mag‘lubiyatga uchramadi.

Javohir to‘rt yarim yoshidan boshlab shaxmat bilan shug‘ullanadi. U xalqaro maydondagi ilk g‘alabasiga 2012-yili Hindistonning Dehli shahrida erishgan. Uning ukasi Islombek ham noyob iste‘dod egasi ekanini namoyon etmoqda. Eronda 2013-yili bo‘lgan Osiyo chempionatida u bir yo‘la uchta oltin medalni qo‘lga kiritdi.



Prezidentimiz 2013-yil 7-dekabrda «O‘zbekiston» anjumanlar saroyida Kostitutsiya kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida Islombek Sindorovning yutuqlari haqida alohida to‘xtalib o‘tdi: **«5 yashar – e‘tibor bering, 5 yashar – jajji o‘g‘lonimiz Islombek Sindorovning Osiyo chempioni degan sharafli nomga sazovor bo‘lganini olasizmi, qani ayting, aziz do‘stlar, bunday yutuqlar bilan faxrlanmasdan, g‘ururlanmasdan bo‘ladimi?»**



**Bolalikdan boshlab katta-katta ishlar, yuksak marralarga intilib yashash xalqimizning tomirida azaldan mavjud.**

Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk allomalarimiz bolalik yillaridan boshlab tengsiz ilmiy iste‘dodini namoyon etganlar. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy 3–4 yasharligidan boshlab turkiy va forsiy she‘rlarni yoddan o‘qigani, keyincha o‘zi ham g‘azallar yozgani tarixiy manbalardan ma‘lum. Yana bir ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur esa 12 yasharligida Andijon taxtiga o‘tirib, otasidan meros davlatni boshqarishga kirishgan.

Biz nomlari zikr etilgan yosh chempionlarimiz timsolida buyuk ajdodlarimizning munosib davomchilarini ko‘ramiz. Xalqimiz ta‘biri bilan aytganda, oqqan daryo oqadi, hech qachon to‘xtab qolmaydi.



Shu bilan birga, bunday yutuqlar O‘zbekistonda sportning barcha turlari qatori shaxmat rivojiga berilayotgan katta e‘tibor natijasidir.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, mamlakatimizda shaxmat bilan shug‘ullanayotgan yigit-qizlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda yurtimizda 8 mingdan ziyod shaxmat to‘garagi faoliyat yuritib, ularda 150 mingdan ortiq yosh shaxmatchi, jumladan, 76 mingdan ko‘proq qiz bola mashg‘ulotlarda muntazam ishtirok etmoqda.



**Mustaqillik yillarida O‘zbekiston farzandi yurtimiz tarixida birinchi bor shaxmat bo‘yicha jahon chempioni bo‘ldi. Hamyurtimiz Rustam Qosimjonov 2004-yili Liviya davlati poytaxti Tripoli shahrida dunyo shaxmat tojini qo‘lga kiritdi.**



**O‘zbek shaxmat sporti tarixida yorqin sahifa bo‘lib qoladigan yana bir muhim voqea yosh sportchimiz Nafisa Mo‘minovaning yurtimiz xotin-qizlari orasidan birinchi bo‘lib Xalqaro shaxmat federatsiyasi – FIDE tomonidan beriladigan xalqaro grossmeyster unvoniga sazovor bo‘lganidir.**

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov sportchilarimizning yutuqlarini hech qachon e‘tiborsiz qoldirmaydi. Ularni qo‘lga kiritgan g‘alabalari bilan qutlab, qimmatbaho sovg‘alar, davlat mukofotlari bilan taqdirlab keladi.

Ana shu an'anaga ko'ra, 2013-yilning 28-mart kuni Nodirbek Abdusattorovga, 2014-yilning 18-iyul kuni Javohir va Islombek Sindorovlarga Yurtboshimizning qimmatbaho sovg'alari topshirildi.

Bunday jajji qahramonlar – istiqlol farzandlari. Mustaqillik tufayli o'z iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etib kelayotgan bu o'g'lonlarimizning erishajak asosiy yutuqlari, katta-katta marralari hali oldinda. Ularning hayotida bunday quvonchli, hayajonli kunlar hali ko'p bo'ladi. Ayni vaqtda «Biz hech kimdan kam emasmiz» deb, oldinga intilib yashayotgan bu jajji chempionlarga Prezident sovg'asi topshirilgan kun ularning hayotidagi eng yorqin kun bo'lib qoladi, albatta.

Ishonamizki, siz ham ana shunday yoshlarimiz safidan joy olish, el-yurtimizning hurmat-e'tiboriga musharraf bo'lish uchun hayotda, o'qishda doimo oldinga intilib yashaysiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz sportning qaysi turiga qiziqasiz?
2. Qishlog'ingiz yoki mahallangizda sport bilan shug'ullanish uchun qanday imkoniyatlar bor? Siz ulardan foydalanasizmi?
3. Mashhur sportchilarimizdan yana kimlarni bilasiz? Ulardek bo'lishni orzu qilasizmi?
4. Rasmlarda qaysi sport o'yinlari aks ettirilgan?



1



2



3

5. Sport bilan shug'ullanishning qanday foydasi bor, deb o'ylaysiz?



---

---

## VATANGA MUHABBAT

Aziz o‘quvchi, inson qalbidagi orzularning eng ulug‘i – ota-onaga, el-yurtga beminnat xizmat qilish, ularning oldidagi farzandlik burchini sidqidildan ado etishdan iborat. Unga erishish uchun bolalikdan boshlab oldimizga aniq maqsad qo‘yib, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallash, jismoniy va ma‘naviy jihatdan kuchli bo‘lishimiz lozim.



**«Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishq jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi»<sup>1</sup>.**

Ona yurtga mehr-muhabbat oddiy insonlarga ham ulkan kuch-qudrat baxsh etib, ularni jasoratga undaydi. Masalan, Shiroq haqidagi rivoyatni esga olaylik. Shiroq – oddiy cho‘pon. Uning qurol-yarog‘i yo‘q. Faqat Vatanga cheksiz muhabbati bor. Ana shu buyuk tuyg‘u uni qudratli yovga qarshi yolg‘iz kurashga chorlaydi. U dushman qo‘lida o‘lishini bilsa-da, bu, yuqorida aytilganidek, eng ulug‘ maqsad – Vatan ozodligi yo‘lidagi o‘lim ekanini yaxshi anglab, undan qo‘rqmaydi. U o‘z qahramonligi orqali hech qachon zulm va bosqinchilik bilan butun bir xalqni yengib bo‘lmasligini, uning mard farzandlari bunga aslo yo‘l qo‘ymasligini isbotlaydi.

Shiroq kabi qo‘rqmas va botir o‘g‘lonlar dunyodagi barcha xalqlarda bo‘lgan. Chunki, har qanday xalqning tinch va osuda hayoti, baxt-u saodati uning mard va bahodir farzandlariga bog‘liq.

---

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 90-bet.



## BIR PARCHA YER

Qadimda bir yurtga yov bostirib kirmoqchi bo‘libdi. Lekin mamlakat podshosi donishmand va tinchliksevar ekan. U qon to‘kilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun yov lashkarboshisiga uchqur arg‘umog‘i, ya‘ni zotdor otini sovg‘a qilibdi. Ammo dushman urush boshlaymiz, deb dag‘dag‘a qilishdan to‘xtamabdi. Podsho yana bosiqlik bilan dushman lashkarboshisiga tilla qilichini berib yuboribdi. Biroq makkor yov bunga ham qanoat qilmabdi. U: «Mamlakatingdagi hech narsa o‘smaydigan tashlandiq yerdan bir parchasini berasan, bo‘lmasa yurtningni qonga belaymiz»,— deb shart qo‘yibdi. Shunda podsho qat‘iyatga to‘lib, lashkariga buyuribdi: «Ey yurtimning mard o‘g‘lonlari, qani, kurashga otlaning! Makkor yov muqaddas tuprog‘imizga ko‘z olaytirmoqda. Ota-bobolarimizdan meros Vatanning bir qarich yerini ham dushmanga berib qo‘ymaymiz»,— deb lashkarini jangga boshlagan ekan.



*Qani, ayting-chi, tilla qilich qadrlimi yoki bir parcha yermi?*

Jahon xalqlarining ertaklari, qo‘shiq va dostonlarida ham mardlik va fidoyilik asosiy mavzulardan biri. Masalan, hindlarning «Mahobxorat» va «Ramayana» dostonlari, yunonlarning Prometey, Antey, Gerakl va Odissey singari afsonaviy qahramonlari, biz yashayotgan Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining Rustami doston, Suhrob, Siyovush, Farhod kabi alp pahlavonlari timsolida ana shunday fazilatlar ulug‘lanadi.

Xalqimizning «Uch-og‘ayni botirlar», «Semurg‘ va Bunyod», «Tohir va Zuhra» kabi ertaklari, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» singari dostonlarida mardlik va ezgulik kuylanadi. Shu ruhda tarbiya topgan ota-bobolarimiz Vatanga muhabbat bilan yashashni eng muqaddas burch deb bilganlar.



**«Xalqimizning yengilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor azamat o‘glonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma‘naviy qiyofasini ko‘ramiz»<sup>1</sup>.**



Yuqoridagi fikr va misollar sizlar kabi sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish chuqur tarixiy va ma‘naviy asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Yurtimizda har bir yigit xalqi va Vatani oldidagi muqaddas burchi bo‘lgan harbiy xizmatga kirishar ekan, askar libosini kiyib, tantanali qasamyod qabul qiladi.

Siz Toshkent shahridagi «Vatanga qasamyod» haykalini televizor orqali ko‘rgansiz. Vatan himoyachilari sharafiga barpo etilgan bu obidada ana shu marosim badiiy aks ettirilgan.

Keltirilgan misollar Vatanga muhabbat hissi inson qalbidan chuqur joy olgan taqdirda naqadar qudratli kuchga aylanishini ko‘rsatadi. Agar bu

tuyg‘u minglab, millionlab yoshlarning yuragiga jo bo‘lsa, bunday kuchni hech kim yengolmaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch ekanini alohida ta‘kidlab, yoshlarga atab yozilgan kitobini aynan shu nom bilan atagani bejiz emas.

O‘zbekiston Qahramoni, atoqli shoirimiz Abdulla Oripovning «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?» degan she‘ri san’atkorlarimiz

---

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 34-bet.

ijrosida qo‘shiq qilib aytilishini yaxshi bilasiz. Bu she‘rni o‘qib, «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?» degan savolga javob topgandek bo‘lamiz.



**Vatanni faqat beqiyos boyliklari, go‘zal tabiati, qulay sharoitlari uchun sevmaydilar. Ona yurt iqlimi, tabiati qanday bo‘lishidan qat’i nazar, inson uchun hech narsaga almashtirib bo‘lmaydigan, uning joni, ruhi orom topadigan muqaddas makon hisoblanadi.**



**«Biz turkistonlilar<sup>1</sup> o‘z vatanimizni jonimizdan ortuq suydigimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig‘ cho‘llarini, eskimo‘lar<sup>2</sup> shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi».**

Qahramonlik, mardlik, fidoyilik bugungi kunda ham eng buyuk fazilatdir. Prezidentimizning quyidagi so‘zlari ayni shu haqiqatni anglashga da‘vat etadi:



**«Ey ulug‘ O‘zbekistonning navqiron avlodi! Sizning bu hayotda orzu-intilishingiz, ko‘zlagan maqsadingiz, qiladigan ishlaringiz ko‘p. Lekin hech qachon unutmangki, sizning eng buyuk, eng muqaddas vazifangiz — yurtimiz istiqlolini, xalqimiz erk-u ozodligini ko‘z qorachig‘idek asrash, uning xavfsizligini himoyalashdir»<sup>3</sup>.**

Xorazmlik ulug‘ allomamiz Najmiddin Kubro bobomiz Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari bostirib kirgan paytda ancha

---

<sup>1</sup> 1924-yilgacha, ya‘ni O‘rta Osiyoda bolsheviklar tomonidan milliy chegaralanish o‘tkazilgunga qadar hozirgi O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston va Turkmaniston hududi umumiy nom bilan Turkiston, bu yerda yashaydigan xalqlar esa turkistonliklar deb atalgan.

<sup>2</sup> **Eskimoslar** — shimoliy gutbga yaqin o‘lkalarda yashaydigan xalq.

<sup>3</sup> «Xalq so‘zi» gazetasi, 2000-yil 1-sentabr soni.

keksayib qolgan edi. Dushmanlar ul zotning obro‘-e‘tiborini hisobga olib, qamal qilingan Ko‘hna Urganch shahridan chiqib ketish uchun unga ruxsat beradi. Lekin mard va donishmand ajdodimiz dushmaning bu shartiga ko‘nmaydi. U o‘z yurtdoshlari bilan birga ona yurtini himoya qilib, qahramonlarcha halok bo‘ladi.

Necha ming yillar davomida ajdodlarimiz ko‘z qorachig‘idek asrab kelayotgan aziz Vatanimizni sevib, uning har qarich tuprog‘ini ko‘z qorachig‘idek asrab yashash – bizning eng oliy burchimiz.



**Vatanni sevmaslik – eng ulug‘ insoniy baxtdan, hissiyotdan mahrumlikdir. Ona yurt taqdiriga beparvo qarash – uni o‘zgalar qo‘liga topshirib qo‘yish bilan barobardir.**

Haqiqiy farzand Vatanni butun vujudi bilan sevadi, uni asrash, ravnaq toptirish uchun bor kuch va imkoniyatlarini bag‘ishlaydi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Vatan haqida qanday she‘r yoki maqol bilasiz?
2. Vatan ozodligi uchun kurashgan qahramon insonlar haqida gapiring.
3. Rasmlarda Vatanga muhabbat hissi qanday aks etgan?



1



2



3

4. «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?» qo‘shig‘idan bir parcha kuylab bera olasizmi?

## SOHIBQIRON AMIR TEMUR

Aziz o'quvchi, Vatan haqida, Vatanga muhabbat haqida so'z yuritganda, avvalo qahramon ajdodlarimizni esga olamiz. Sohibqiron Amir Temur bobomiz ana shunday buyuk zotdir.



**Amir Temur 1336-yil 9-aprelda qadimgi Kesh, hozirgi Shahrizabz yaqinidagi Xo'jailg'or qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, otasi Amir Tarag'ay, onasi Takinabegim nomlari bilan mashhur.**



*Sohibqiron so'zi g'olib va saodatli inson, Zuhro va Mush-tariy sayyorolari bir-biriga yaqin kelganda, qiron burjida tug'ilgan degan ma'noni bildiradi.*



**Amir Temur nafaqat Vatanimiz, balki dunyo tarixida eng yorqin va noyob shaxslardan biri deb tan olinadi, katta qiziqish bilan o'rganiladi.**

Sohibqiron o'ta qiyin va murakkab tarixiy sharoitda o'z yurtini — hozirgi O'zbekiston hududini ham qamrab olgan qadimiy Turkiston zaminini mo'g'ullar zulmidan ozod qildi. So'ngra «Amir Temur va temuriylar davlati», «Amir Temur va temuriylar davri», «Amir Temur va temuriylar renessansi» degan nomlar bilan jahon tarixidan o'rin olgan qudratli davlatga asos soldi. Dunyo tarixida bunday buyuk ishlarga qodir bo'lgan insonlar kamdan kam topiladi.



*«Temuriylar» deganda, Amir Temur ishini davom ettirgan uning farzandlari va barcha avlodlarini tushunamiz.*

Amir Temur endigina katta hayotga qadam qo'yayotgan paytda yurtimiz dushmanga qaram edi. Mo'g'ul nomini eshitsa, hammaning tizzasi qaltirardi. Hatto, o'zining botirligi bilan nom qozongan, «bahodir» degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan Amir Temurning amakisi,



### **Toshkent. Amir Temur haykali**

Kesh viloyatining hokimi Amir Xo‘ja Barlos ham mo‘g‘ul xonlarining qahridan qo‘rqadi. U mo‘g‘ul xoni Tug‘luq Temur Movarounnahr xalqini jazolash uchun kelayotganini eshitib, Amudaryodan o‘tib, chet o‘lkalarga bosh olib ketadi. 24 yashar jiyani Temurbek esa, amakisidan ruxsat so‘rab, ortiga qaytadi.

Mo‘g‘ullar Amir Temurning jasoratiga tan berib, uni Kesh viloyatiga dorug‘a, ya’ni boshliq qilib tayinlaydi.

Amir Temur buyuk sarkarda, donishmand siyosatchi edi. U g‘alaba askarning ko‘pligiga, mag‘lublik va yengilish esa lashkarning kamligiga emas, balki Tangrining madadi va bandasining tadbiriga bog‘liq, deb hisoblaydi.



**«Tajribamda ko‘rilganki, ishbilarmon, mardlik, shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, mingminglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir»<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> Temur tuzuklari. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991-yil, 15-bet.





*Bitta odam mingta odamning ishini qila oladimi? Siz buni qanday izohlaysiz?*

Amir Temur bobomiz hayotda bu soʻzlarga qatʻiy amal qiladi. Masalan, Qarshi qalʼasi uchun boʻlgan jangda 243 nafar askari bilan dushmanning 12 ming kishilik otliq qoʻshini ustidan gʻalaba qozonadi. Bu, haqiqatan ham, tadbirkor va hushyor bir kishining minglab tadbirsiz, loqayd odamlardan afzal ekanini koʻrsatadigan misoldir.



Samarqand. Amir Temur haykali



**Amir Temur hamma sohada adolatni bosh mezon deb bilgan. «Kuch – adolatda» degan shiorga amal qilib yashagan.**



**Sohibqironning «Tuzuklar» kitobida davlatni boshqarish, harbiy ishlarni amalga oshirish borasidagi tajribalari, kelajak avlodlar uchun maslahat va koʻrsatmalari bayon qilingan.**

«Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yoʻlini toʻsdim»,– deb yozadi buyuk bobomiz «Tuzuklar»da.



**Amir Temur ulugʻ bunyodkor inson edi.**

Siz Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Termiz, Toshkent, Margʻilon kabi qadimiy shaharlarimizdagi tarixiy-meʼmoriy obidalar haqida eshitgan boʻlsangiz kerak. Ularning orasida Amir Temur bobomiz barpo ettirgan binolar ham saqlanib qolgan. Ul zot Samarqand shahri va uning atrofida 14 ta ulkan bogʻ barpo ettirgan.



**Amir Temur ilm-ma’rifat, madaniyat, adabiyot va san’at homiysi edi.**

Uning davrida yuqorida nomlari zikr etilgan shaharlar ilm-fan, madaniyat, me’morlik, adabiyot va san’at markaziga aylanadi.



**Amir Temur va temuriylar zamonida Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi singari allomalar, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiydek aziz-avliyolar, Mavlono Lutfiy, Sakkokiy, Otoy, Alisher Navoiy kabi shoirlar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzoddek rassomlar yetishib chiqdi.**

Mustaqillikka erishganimizdan keyin barcha ajdodlarimiz kabi Amir Temur bobomiz xotirasiga ham yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatilmoqda.



**1993-yil 31-avgustda Toshkent shahrida Amir Temur haykali ochildi. 1996-yil mamlakatimizda «Amir Temur yili» deb e’lon qilindi. O’sha yili 26-aprelda davlatimizning yuksak mukofotlaridan biri – «Amir Temur» ordeni ta’sis etildi.**



**1996-yili Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Samarqand va Shahrisabzda esa Sohirqiron bobomizning haykallari ochildi.**



**Temuriylar tarixi davlat muzeyi**

Toshkent shahridagi markaziy xiyobon va ko‘cha, metro bekati Amir Temur nomi bilan ataladi. Mamlakatimizning boshqa shaharlarida ham ulug‘ ajdodimizning nomi bilan ataladigan maskanlar ko‘p.

Xulosa qilib aytganda, Sohirqiron bobomizning muborak nomi, xotirasi, tarixiy merosi yuksak qadr-qimmat topib, ma’naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi va yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurishga xizmat qilmoqda.




### *Savol va topshiriqlar:*

1. Sizning shahringiz yoki tumaningizda Amir Temur nomi bilan ataladigan joylar bormi?
2. Amir Temurdek bobolarimizga munosib bo'lish uchun nimalar qilish kerak, deb o'ylaysiz?
3. Rasmlardagi haykallar yurtimizning qaysi shaharlarida joylashganini aytib bering.



1



2



3

4. «Kuch — adolatda» degan shiorning ma'nosini tushuntirishga harakat qiling.



## TAKRORLASH

### «VATAN – YAGONA VA MUQADDAS» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOLLAR

1. Abdulla Avloniyning Vatan haqidagi fikrlarini aytib bering.
2. Sidqiy Xondayliqiy Vatan haqida qanday she’riy satrlar yozgan?
3. Vatan ichidagi kichik Vatan deganda nimalarni tushunamiz?
4. «Mahalla» va «qishloq» so‘zlarining ma’nosini tushuntiring.
5. «Shahar» so‘zining ma’nosini aytib bering.
6. Rasmlarda yurtimizning qaysi fasllari aks ettirilgan?



### TESTLAR

#### 1. Vatan deganda nimani tushunamiz?

- A) Kindik qonimiz tomgan joyni | C) Peshona terimiz tomgan tuproqni  
B) Ko‘z yoshimiz tomgan yerni | D) Tuz-nasibamiz to‘kilgan makonni

#### 2. «Mahalla» so‘zi qanday ma’noni bildiradi?

- A) Joy degan ma’noni | C) Vatan degan ma’noni  
B) Ona degan ma’noni | D) Guzar degan ma’noni

#### 3. «Qishloq» so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

- A) Qishi sovuq joy degan ma’noni | C) Qishlaydigan joy degan ma’noni  
B) Chekka yer degan ma’noni | D) Ishlaydigan joy degan ma’noni

#### 4. «Shahar» soʻzi qanday maʼnoni bildiradi?

- A) Odam koʻp yashaydigan joy maʼnosini
- B) Mamlakat degan maʼnoni
- C) Hunarmandlar vatani degan maʼnoni
- D) Obod joy degan maʼnoni

### «VATANNI ANGLASH» MAVZUSI BOʻYICHA SAVOLLAR

1. Vatanimizdagi har bir hududning oʻziga xos xosiyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Oʻtroq hayot belgilarini aytib bering.
3. Koʻngildagi vatan haqidagi qaysi hikoyani bilasiz?
4. Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdingin jasorati va Prezident Islom Karimovning u haqda bildirgan fikrlari toʻgʻrisida gapirib bering.
5. Rasmlardagi lavhalar Vatanni anglash bilan bogʻliqmi?



### TESTLAR

#### 1. Samarqandda tayyorlanadigan qaysi neʼmat mashhur?

- A) Osh
- B) Tandir kabob
- C) Lagʻmon
- D) Non

#### 2. Oʻtroq hayot belgilarini nimalarda koʻrish mumkin?

- A) Aniq bir joyda doimiy qoʻnim topib yashashda
- B) Dengiz boʻylarida yashashda
- C) Chorvachilik bilan mashgʻul boʻlishda
- D) Bir joydan ikkinchi joyga koʻchib yurishda

### 3. Ko'ngildagi vatan haqidagi hikoyaning nomi

- A) «Hellados»  
B) «Yunoniston»
- C) «Urush va tinchlik»  
D) «Shum bola»

### 4. Buyuk ajdodimiz Jaloliddin Manguberdi kim bo'lgan?

- A) Buyuk sarkarda  
B) Ulug' shoir va alloma
- C) Oddiy askar  
D) Samarqand shahrining hokimi

## «VATAN TUYG'USI» MAVZUSI BO'YICHA SAVOLLAR

- ?**
1. «Maugli» asarida nima haqida hikoya qilinadi?
  2. Vatan tuyg'usi nima uchun insonga bir umr hamroh, hamnafas bo'ladi?
  3. Zahiriddin Muhammad Boburning qabri qayerda?
  4. Fidoyilik deganda nimani tushunasiz?
  5. Rasmlarda Vatan tuyg'usi qanday aks ettirilgan?



### TESTLAR

#### 1. «Maugli» asarida nima haqida hikoya qilinadi?

- A) Hayvonlar muhitiga moslashib ketgan bola haqida  
B) Ota-onasini sog'ingan bola haqida  
C) Odamlar muhitiga moslashib ketgan mushuk haqida  
D) Yovvoyi hayvonlar haqida

#### 2. Insonga bir umr hamroh, hamnafas bo'ladigan tuyg'u

- A) Sog'inch tuyg'usi  
B) Chidam tuyg'usi
- C) Vatan tuyg'usi  
D) Yetuklik tuyg'usi



### 3. Alloma soʻzining maʼnosi nima?

- A) Olimlarning olimi  
B) Ulugʻ shoir  
C) Tarixchi olim  
D) Buyuk sarkarda

### 4. 2014-yil 15–16-may kunlari xalqaro konferensiya oʻtkazilgan shaharni toping.

- A) Toshkent  
B) Jizzax  
C) Samarqand  
D) Qoʻqon

## «OILA – VATAN TIMSOLI» MAVZUSI BOʻYICHA SAVOLLAR

1. Prezidentimiz Islom Karimov oilaga qanday taʼrif bergan?  
2. «Oʻz uyim – oʻlan toʻshagim» degan hikmatli soʻzning maʼnosini tushuntira olasizmi?  
3. Onani nima uchun Vatanga qiyoslaymiz?  
4. Qanday mashhur sulolalarni bilasiz?  
5. «Qush uyasida koʻrganini qiladi» degan maqolni tushuntirishga harakat qiling.  
6. Rasmlarga qarab, oilaning inson hayotidagi ahamiyati haqida gapiring.



## TESTLAR

### 1. Vatanni tasavvur etganimizda xayolimizdan avvalo nima oʻtadi?

- A) Tugʻilgan, voyaga yetgan uyimiz  
B) Maktabimiz  
C) Daftaramiz  
D) Koʻchamiz

### 2. Mustaqillik maydonidagi haykalning nomi?

- A) «El-yurt tayanchi»  
B) «Baxtiyor ona»  
C) «Motamsaro ona»  
D) «Ezgulik arkasi»

**3. Mashhur tarixiy sulolalarning nomlari yozilgan qatorni ko'rsating.**

- A) O'qituvchilar, shifokorlar                      C) Muhandislar, me'morlar  
B) Olimlar, shoirlar, ziyolilar                  D) Temuriylar, boburiylar

**4. Oilani nima uchun jamiyat negizi deymiz?**

- A) Jamiyat minglab oilalardan tashkil topgani uchun  
B) Inson oilada shakllangani uchun  
C) Asosiy vaqtimiz oilada o'tgani uchun  
D) Oila muqaddas qo'rg'on bo'lgani uchun

**«VATANGA MUHABBAT» MAVZUSI  
BO'YICHA SAVOLLAR**

- ?** 1. Insonning eng ulug' orzusi nima?  
2. Shiroqqa kuch va ishonch baxsh etgan narsa nima deb o'ylaysiz?  
3. Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida Alpomish haqida qanday fikrlarni bildirgan?  
4. Rasmlar orasidan «Vatanga qasamyod» haykalini ko'rsating.



5. Siz ham harbiy bo'lib, tantanali qasamyod qabul qilishni istaysizmi?

**TESTLAR**

**1. Inson uchun eng ulug' orzu nima?**

- A) Dunyo bo'ylab sayohat qilish  
B) Kasb-hunar, bilim-ma'rifat egasi bo'lish  
C) Ota-onaga, el-yurtga beminnat xizmat qilish  
D) Boshqalardan orqada qolib ketmaslik

**2. «Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqi jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi» degan so'zlar Prezidentimiz Islom Karimovning qaysi kitobidan olingan?**

- A) «Olloh qalbimizda, yuragimizda» kitobidan
- B) «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobidan
- C) «Vatanga qasamyod – mardlik va jasorat madhiyasi» kitobidan
- D) «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» kitobidan

**3. Shiroqqa kuch va ishonch baxsh etgan narsa nima?**

- A) O'ziga bo'lgan kuchli ishonch
- B) Dushmanni yaxshi bilgani
- C) Do'stlari ko'p bo'lgani
- D) Ona yurtga bo'lgan ulkan mehr-muhabbat

**4. «Vatanga qasamyod» haykali qaysi shaharda barpo etilgan?**

- A) Samarqand
- B) Toshkent
- C) Termiz
- D) Qarshi



## ***Ikkinchi bob. ONA VATANIMIZ – G‘URUR-IFTIXORIMIZ***

---

### **O‘ZBEKISTON DEYA ATALUR**

Aziz o‘quvchi, endi siz bilan ona diyorumiz – O‘zbekiston haqida suhbatlashamiz. Bu o‘ta maroqli suhbat-sayohatdir.



**O‘zbekiston dunyodagi eng qadimiy va betakror o‘lkalardan biri. U Osiyo qit‘asining markaziy qismida, ya’ni Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan.**



*«Mintaqa» ona tilimizga arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, yo‘nalish, chegara, hudud degan ma‘nolarni anglatadi.*

O‘zbekiston shimoli-sharqda Qirg‘iziston, shimol va shimoli-g‘arbda Qozog‘iston bilan, janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston bilan, janubda qisman Afg‘oniston bilan chegaradosh.



**O‘zbekistonning umumiy maydoni 447 ming 400 kvadrat kilometrni tashkil etadi. Maydonining beshdan to‘rt qismi tekislik, oz qismi tog‘, adir, tog‘ yonbag‘irlaridan iborat.**

O‘zbekiston hududidan Markaziy Osiyoning eng katta daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqib o‘tadi. Mamlakatimizning sharqiy va janubi-sharqiy qismida Tiyonshon, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘lari bor. Bu tog‘lar orasida Farg‘ona, Zarafshon, Kitob – Shahrisabz, Surxon – Sherobod, Chirchiq – Ohangaron kabi katta vodiylar joylashgan. Aholining asosiy qismi ana shu vodiylarda yashaydi.



**Vatanimizning poytaxti Toshkent shahridir. O‘zbekiston bitta respublika va 12 ta viloyatdan tashkil topgan. Bular Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlaridir.**



**«Vatanimizdagi har bir viloyat, tuman, har qaysi shahar-qishloq — barchasining o‘ziga xos qiyofasi, fayz-u tarovati bor»<sup>1</sup>.**

O‘zbekistonni bir ko‘rgan odam, hech shubhasiz, uni sevib qoladi. Yurtimizga ming-minglab sayyohlar tashrif buyuradi va ularning barchasi bu tarovatli, serquyosh zamin ularni o‘ziga maftun etgani haqida hayajonlanib so‘zlaydilar.



**O‘zbekiston oltin zaxirasi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turadi. Mamlakatimizda uran, neft va gaz, mis, kumush, litiy, fosfor, kaliy kabi mineral qazilmalarning ham boy zaxirasi, 20 ta marmar koni, 15 ta granit va qimmatbaho toshlar koni mavjud.**

O‘zbekiston yilning to‘rt fasli to‘liq namoyon bo‘ladigan jahondagi kamdan kam mamlakatlardan biridir. Yurtimizning dehqonchilik uchun qulay, hosildor zamini, daryo va ko‘llari, noyob tabiati, obod shahar va qishloqlari, ko‘plab sanoat korxonalari, temir va avtomobil yo‘llari, ta‘lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat maskanlari — bularning barchasi milliy boyligimizdir.

Siz «Neksiya», «Damas», «Matiz», «Lasetti», «Spark», «Kobalt», «Malibu», «Orlando» yengil avtomobillarini, «Suzuki» avtobuslarini, «Man» yuk mashinalarini ko‘rgansiz. Bu mashinalar mustaqillik yillarida Asaka va Samarqand shaharlarida ish boshlagan avtomobil zavodlarida ishlab chiqariladi.

---

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Xalq ishonchi — oliy mas’uliyat. T.: «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2000-yil, 225-bet.



**Mamlakatimiz dunyoda avtomobilsozlik sanoatiga ega bo'lgan 28 ta davlatning biri hisoblanadi.**

Yurtimiz aholisining deyarli yuz foizi savodli ekani bizning ulkan ma'naviy boyligimizdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qarshi, Termiz, Karmana, Shahrisabz, Marg'ilon, Qo'qon kabi qadimiy shaharlarimizdagi noyob obidalar ham faxr-iftixorimizdir.

Mamlakatimizdagi turli institutlar, kutubxona va muzeylarda o'ta nodir qo'lyozmalar mavjud. Zardushtiylikning qadimiy kitobi «Avesto» ham bizning diyorumizda – ko'hna Xorazm zaminida yaratilgan.



**Musulmon olamida tan olingan oltita ulug' hadisshunosdan uchtasi bizning zaminimiz farzandi. Bular – Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Nasoiydir.**

## BUYUK BOBOMIZNING BUYUK KITOBI



Aziz vatandosh, dunyoda qiziqarli va foydali kitoblar ko'p. Lekin ularning orasida butun insoniyat uchun birdek qadrlil bo'lgan, ming yillar o'tsa ham qimmatini yo'qotmaydiganlari barmoq bilan sanarlidir. Biz har qancha faxrlansak



arziydigan jihati shundaki, inson aql-zakovati bilan yaratilgan kitoblarning eng ulug‘i aynan bizning buyuk ajdodimiz Imom Buxoriy nomi bilan bog‘liq. Bu – butun musulmon dunyosida tan olingan haqiqatdir.



«Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami – «Al-jome’ as-sahih»<sup>1</sup> kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyin ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi. Mana, o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda»<sup>2</sup>.



*Aziz o‘quvchi, siz yana qanday buyuk kitoblarni bilasiz?*

Qadimda Xitoydan boshlanib, Sharq-u G‘arbni bog‘lagan Buyuk ipak yo‘li Vatanimiz hududidan o‘tgan. Bu yo‘l orqali o‘lkamizga zarur tovar va mahsulotlar bilan birga turli xalqlarga xos madaniyat belgilari ham kirib kelgan.



*Buyuk ipak yo‘li ipak matolarni Xitoydan olis Yevropa mamlakatlariga olib borib, qit‘alar, el-u elatlarni bog‘lashga xizmat qilgani uchun ayni shu nom bilan atalgan.*

Mustaqillik yillarida milliy boyliklarimizga boylik qo‘shish yo‘lida ulkan ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, sizdek yosh avlod vakillari nafaqat moddiy jihatdan, balki ma’naviy jihatdan ham hech kimdan kam bo‘lmasdan voyaga yetishi uchun hamma sharoitlar yaratilmoqda.

<sup>1</sup> «Al-jome’ as-sahih» – sahih, ya’ni ishonchli hadislar to‘plami degani.

<sup>2</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 38-bet.



**Bizning eng katta boyligimiz – o‘z Vatanini chin dildan sevib, har qarich tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo qilib yashaydigan, niyati pok, maqsadi ulug‘, mard va oriyatli xalqimizdir. Yurtimizdagi barcha boyliklarning egasi, yaratuvchisi, ularni turli sinov va mashaqqatlardan asrab, bezavol saqlab kelayotgan qudratli, bunyodkor kuch – xalqimizdir.**

O‘zbekiston – yer yuzidagi yakka-yu yagona Vatanimiz. Yaxshi kunlarimiz ham, yomon kunlarimiz ham mana shu muqaddas zamin bag‘rida o‘tadi. Ajdodlarimiz xoki, ota-bobolarimiz xotirasi, momolarimiz allasi, bugungi kunimiz, ertamiz – butun hayot-mamotimiz mana shu Vatan ravnaqi bilan bog‘liq. Shunday ekan, o‘zimiz unib-o‘sgan, muqaddas tuprog‘ida oyoqlarimizning izlari qolgan, har kuni, har daqiqada bebaho ne‘matlaridan bahramand bo‘ladigan bu yurt uchun doimo xizmatga shay bo‘lishimiz kerak.



### *Savol va topshiriqlar:*


1. Siz shoir bo‘lsangiz, O‘zbekistonga mehringizni qanday ifoda etgan bo‘lardingiz?
2. Har faslning tabiatdagi o‘rni va go‘zalligi haqida gapirib bera olasizmi?
3. Sizga qaysi fasl ko‘proq yoqadi?
4. Mamlakatimizning qaysi shaharlarini borib ko‘rishni istaysiz?
5. Rasmlarga qarab, yurtimizning boyliklari haqida gapirib bering.



1



2



3



4

## O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

Aziz o'quvchi, inson hayotida kitob juda katta o'rin tutadi. Ayniqsa, xat-savod chiqarish, bilim olish, eng zarur kasb-hunar va ko'nikmalarni egallashda u biz uchun eng yaqin va beminnat maslahatchi bo'lib xizmat qiladi.

Kitob azal-azaldan bilim-ma'rifat, ezgulik manbayi bo'lib kelgan. Endigina tuproqni yorib chiqqan nihol quyoshga intilgani kabi odamzot ham kitobga, bilimga tinimsiz talpinib yashaydi.

Bosqinchi yovlar qaysi yurtga bostirib kelsa, uning boshqa noyob boyliklari qatori kitoblarini ham yo'q qilishga yoki o'lja sifatida olib ketishga uringani bejiz emas. Dushmanlar shu yo'l bilan o'zlari bosib olgan xalqni ma'naviyati, tarixiy xotirasidan mahrum etib, uni butunlay qaram qilishga uringan.

Jahon xalqlarining madaniy boyligi yoki taraqqiyot tarixi haqida gap ketsa, birinchi navbatda ularning olimlari, shoir va yozuvchilari qanday buyuk asarlar yaratgani tilga olinadi.




**Biz uchun Imom Buxoriyning «Al-jome' as-sahih», Abu Rayhon Beruniyning «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar», Ibn Sinoning «Tib qonunlari», Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlari va boshqa kitoblar buyuk boylik hisoblanadi.**



Kitob tufayli biz tarixdan, ulug‘ ajdodlarimizning hayoti, kelajak avlodlarga meros qilib qoldirgan ishlari, o‘g‘itlaridan xabardor bo‘lamiz. Kitob o‘qib, dunyodagi boshqa xalqlarning turmush tarzi, tili, dini, urf-odatlarini haqida tasavvurga ega bo‘lib, ularni g‘oyibona yaxshi ko‘rib qolamiz. Kitob orqali o‘zimizni boshqalarga tanitimiz.



**Kitob davlat va jamiyat taraqqiyotini ko‘rsatadigan buyuk mezondir. Kitob hamma zamonlarda e‘zozlanadi. Ota-bolarimiz uni aziz va muqaddas bilib, uying to‘rida, maxsus tokchalarda, ba‘zan hatto temir sandiqlarda saqlaganlar.**



Kitobni asrash va undan foydalanishning eng qulay yo‘li kutubxonadir. Kutubxonalar bajaradigan vazifasi, katta yoki kichikligiga qarab, har xil bo‘ladi. Yurtimizda qadimdan har bir xonadonning kutubxonasi bo‘lgan. Bu oilaviy yoxud shaxsiy kutubxonalar deyiladi. Har bir bilim yurtida ham o‘quvchilar, o‘qituvchilar foydalanadigan kutubxonalar bo‘ladi. Bugungi kunda ular kompyuter texnikasi va texnologiyalari, Internet tizimi bilan jihozlangani uchun nomi ham, vazifasi ham o‘zgarib, axborot-resurs

markazlari degan nom bilan ataladi. Siz ham maktabingizda ana shunday markazdan foydalanasiz, albatta.

Kutubxonaning yana bolalar kutubxonasi, yoshlar kutubxonasi, ilmiy kutubxonalar, tashkilot kutubxonasi, davlat kutubxonasi kabi turlari bor.

Jahondagi har bir davlatning ma‘naviy-intellektual salohiyatini ko‘rsatadigan markaziy yoki milliy kutubxonasi bo‘ladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi farmoniga muvofiq yurtimizda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasiga asos solindi.**

Bu kutubxona 1870-yilda Toshkent xalq kutubxonasi degan nom bilan ish boshlagan, keyinchalik Turkiston davlat kutubxonasi, O‘rta Osiyo davlat kutubxonasi, O‘zbekiston davlat xalq kutubxonasi degan nomlar bilan atalgan kutubxona negizida tashkil etildi.

Milliy kutubxona 2012-yili hozirgi muhtasham zamonaviy binosida ish boshladi. Bu bino go‘zal va betakror ko‘rinishi bilan har qanday odamni maftun etadi. U Ma‘rifat markazi deb ataladigan, Milliy kutubxona bilan birga Simpoziumlar saroyini o‘z ichiga olgan majmua tarkibiga kiradi. Bu noyob koshona Toshkent shahrining Alisher Navoiy ko‘chasida joylashgan.



**Simpoziumlar saroyida O‘zbekiston taraqqiyotning turli sohalarida erishilgan yutuqlarga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalar o‘tkaziladi. Bu anjumanlarda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov qatnashadi va ma‘ruza qiladi.**

Ma‘rifat markazining sharq tarafida musiqali fontan, uning yon-atrofida esa yashil maydon va xiyobonlar joylashgan.

Milliy kutubxonaning ichkarisiga kirishingiz bilan hayratingiz yanada ortadi. Bu yerda jami 12 ta zal bo‘lib, ularning har biri aniq vazifani bajaradi. Turli zallarda joylashgan kitob muzeyi, bolalar xonasi, kinomarkaz, bufet, dam olish zonalari, o‘quv markazi, elektron kutubxona ham keng va yorug‘ligi, barcha qulayliklari bilan tashrif buyuradiganlarga xush kayfiyat bag‘ishlaydi.

Kutubxonaning kitob va axborot-resurs fondi nihoyatda boy hamda xilma-xildir. Uning umumiy hajmi 6 million nusxadan ziyoddir.



Ularning orasida Qur'oni karimning qadimiy nusxalaridan tortib, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoir va adiblarimiz asarlarining nodir qo'lyozmalarigacha, XIX–XX asrlardagi milliy matbuotimiz namunalari, o'zbek, jahon adabiyoti durdonalari hamda turli sohalarga oid ilmiy, ilmiy-ommabop kitoblar, ularning bosma va elektron nusxalari, internet materiallarini topish mumkin.

Kutubxona bir vaqtning o'zida 900 kishiga xizmat ko'rsata oladi. Bu yerda 220 ta o'quvchi o'rni kompyuter bilan jihozlangan, bir akademik soat hajmida internetdan bepul foydalanish mumkin. Bundan tashqari, kutubxonada netbuklarni ijaraga berish yo'lga qo'yilgan, shuningdek, 10 ta infokiosk, brayil yozuvidagi, ya'ni ko'zi ojizlar uchun kitoblar, brayil klaviaturasi bilan jihozlangan kompyuterlar mavjud.

Bir so'z bilan aytganda, Milliy kutubxona mamlakatimizning ma'naviy xazinasidir. Har kuni bu qutlug' dargohga ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lish uchun ko'plab yoshlar kelishini ko'rib, xalqimiz haqiqatan ham yuksak ma'naviyatli xalq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz kitobni sevasizmi?
2. Sizning shaxsiy kutubxonangiz bormi?
3. Unda qanday kitoblar bor?
4. Maktabingizdagi axborot-resurs markazidan foydalanasizmi?
5. Kompyuter kitobning o'rnini bosa oladimi?
6. Rasmlardagi qaysi kitoblarni tanlagan bo'lardingiz va nima uchun?



1



2



3



4



---

---

## O‘ZBEKISTON XALQI

Aziz o‘quvchi, bizning eng katta boyligimiz mehnatkash va donishmand xalqimiz ekanini avvalgi darsimizda bilib oldik. Shuning uchun Vatanimizni qanchalik suyib ardoqlasak, uning bor yukini tog‘dek yelkasida ko‘tarib kelayotgan xalqimizni ham shunchalik sevamiz.

Dunyodagi eng go‘zal so‘zlar, ta‘riflar Vatanimizga qanchalik yarasha, xalqimizga ham shunchalik yarashadi. Eng mo‘tabar nom – ona so‘zini ham avvalo «Vatan», «xalq» degan so‘zlarga qo‘shib aytamiz.



**Vatanni va xalqni bir-biridan hech qachon ajratib tasavvur etib bo‘lmaydi. Xalqimiz timsolida Vatanimizni ko‘rsak, Vatanimiz timsolida xalqimizni ko‘ramiz.**

Xalqimiz dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri. Avvalo, Vatanimizning qadimiyligi, uning tuprog‘ida uch ming yillar oldin ayni shu xalq shahar va qishloqlar, milliy davlat, madaniyat barpo etgani bu haqiqatni yaqqol isbotlaydi.



*«Xalq» so‘zi ona tilimizga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, yaratilgan degan ma‘noni bildiradi. Ya‘ni, ezgu ishlar uchun yaratilib, bir tilda so‘zlab, umumiy an‘ana va qadriyatlar asosida yashab, yagona maqsad sari intiladigan kishilar xalqdir. Bu so‘z o‘rnida millat, el, ulus, elat, aholi, xaloyiq so‘zlari ham ishlatiladi.*



**«O‘zbekiston xalqini, millatidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi»<sup>1</sup>.**

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 8-modda. T.: «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014-yil, 5-bet.



Mamlakatimiz ko‘p millatli bo‘lib, yurtimizda o‘zbeklardan tashqari qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman, rus, ukrain, koreys, nemis, arman, ozarboyjon, yahudiy kabi 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi va ularning barchasi birgalikda O‘zbekiston xalqini tashkil etadi. Bu, hech shubhasiz, mamlakatimiz uchun noyob hodisadir. Chunki, har bir millat Yaratganning buyuk mo‘jizasidir. Turli millat va elat vakillari o‘zaro muloqot natijasida bir-biridan ko‘p narsani o‘rganadi, an‘ana va qadriyatlarini boyitadi. Bunday muhit yurtimiz fuqarolarida milliy va diniy bag‘rikenglik, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarash tuyg‘ularini ham rivojlantiradi.



**Xalqimiz tarkibida o‘zbeklar ko‘p sonli va davlatimizga nom bergan millat hisoblanadi. Shuning uchun milliy davlatchiligimizni o‘zbek davlatchiligi, uning nomini esa O‘zbekiston deb ataymiz. O‘zbekiston – o‘zbeklar yashaydigan joy demakdir.**



*O‘zbek xalqi deganda, O‘zbekistonda va dunyoning boshqa mamlakatlarida yashaydigan o‘zbek millatiga mansub aholi, ya’ni o‘zbeklar tushuniladi.*

O‘zbek xalqi dunyo taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan xalqlardan biri hisoblanadi. Bu xalq Alp Erto‘ng‘a, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari mard va bahodir sarkardalarni, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Najmiddin Kubro, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband kabi aziz-avliyolarni, Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek kabi alloma zotlarni, Alisher Navoiy, Mashrab, Ogahiy singari ulug‘ shoir va mutafakkirlarni voyaga yetkazgan.



**O‘zbekiston xalqining tarkibi ko‘p millatli bo‘lgani kabi, o‘zbek millatining tarkibi ham ko‘p elatlidir.**

So‘g‘dlar, saklar, massagetlar kabi turkiy qabilalar hozirgi o‘zbeklarning qadimiy ajdodlari bo‘lgan. Siz massagetlar yo‘lboshchisi To‘marisning eron lashkariga, sak qabilasidan chiqqan Shiroqning Doro askarlariga, so‘g‘d o‘g‘loni Spitamening yunon qo‘shiniga qarshi kurash olib borgani haqidagi hikoyalarni o‘qigan bo‘lsangiz kerak.

O‘zbek xalqi tarkibini shakllantirishda qorluq, o‘g‘uz, nayman, qipchoq, qo‘ng‘irot, kenagas, barlos, mang‘it kabi ko‘plab qabila va urug‘ vakillari ham muhim hissa qo‘shganlar.



**Insonning qaysi urug‘, joy yoki elatga mansubligi uning boshqalardan ustun yoki alohida imtiyozga ega bo‘lishini bildirmaydi. Biz yagona O‘zbekiston, yagona o‘zbek xalqiga mansub ekanimizni chuqur anglab, bu bilan doimo faxrlanib yashashimiz kerak.**



**«Dunyoda yagona o‘zbek millati bor, xorazmlik, farg‘onalik, surxondaryolik o‘rtasida hech qanday milliy farq yo‘q, ularning barchasi o‘zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodimizni anyan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur»<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 91-bet.

Qadim ajdodlarimiz azal-azaldan Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarini makon tutib, bu hududdagi vo‘ha va vodiylarda alohida sivilizatsiya, ya‘ni madaniy taraqqiyotga asos solganlar. Ko‘hna g‘orlar va qoyatoshlarga bitilgan rasmlar, xatlar, mumtoz kuy-qo‘shiqlarimizni o‘z ichiga olgan «Shashmaqom» kabi madaniyat yodgorliklari, Varaxsha, Afrosiyob, Kesh, Naxshab, Qubo, Axsikent, Mingo‘rik, Shohruhiya kabi afsonaviy shaharlar o‘rnidan topilayotgan noyob osori atiqalar ana shu sivilizatsiya mahsulidir.



*«Sivilizatsiya» lotincha so‘z bo‘lib, madaniy taraqqiyot degan ma‘noni bildiradi.*



**«Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir»<sup>1</sup>.**

Xalqimiz yurtimizdagi barcha boyliklarning egasi bo‘lgani uchun mamlakatimizdagi katta o‘zgarishlar uning roziligini olmasdan turib amalga oshirilmaydi. Bugungi kunda davlatimizni boshqarish, islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilishda ana shu qoidaga amal qilinmoqda.

Siz ota-onangizning mahalla majlislariga borganini, ba‘zan «Ovoz berib kelaylik» deb, erta tongda saylov uchastkasiga otlanganini ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. Odamlar davlat va jamiyat hayotiga aloqador bo‘lgan eng muhim ishlarga o‘z munosabatini shu tarzda bildiradi. Xalq irodasining namoyon bo‘lishi deb shunga aytiladi. Ana shunday minglab, millionlab fuqarolarning fikri yig‘ilib, butun xalqning irodasiga aylanadi.



*Fuqaro mamlakat hududida doimiy yashaydigan, davlat va jamiyat hayotiga oid masalalarni hal qilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan shaxsdir.*

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 7-modda. T.: «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014-yil, 5-bet.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston xalqi mamlakatimizda barpo etilayotgan yangi hayot, yangi jamiyatning asosiy bunyodkori hisoblanadi. Bu jamiyatning ma'no-mazmunini, rivojlanish darajasi va istiqbolini shu xalqning orzu-intilish va harakatlari belgilaydi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Biz xalqimizni nima uchun sevamiz?
2. Rasmlarda xalqimizning qanday urf-odatlarini tasvirlangan?



1



2



3

3. Siz xalqimizning qaysi fazilatlarini yaxshi ko'rasiz?
4. Hayotingizda ana shu fazilatlariga amal qilasizmi?
5. O'zbek xalqining farzandi ekaningizdan faxrlanasizmi? Nima uchun?
6. Xalqimiz haqida qanday she'r yoki qo'shiq bilasiz?

### *Amaliy mashg'ulot*

## MIRZO ULUG'BEK MUZEYI

Aziz o'quvchi, siz Samarqand shahriga borganmisiz?



**Samarqand 2750 yildan ziyod tarixga ega. U dunyodagi Rim, Damashq, Afina kabi qadimiy shaharlar qatorida turadi.**

Bu shaharda odamni hayratga soladigan tarixiy yodgorliklar, buyuk me'moriy obidalar ko'p. Shulardan biri shaharning sharq tarafida, ko'hna Cho'ponota tepaligida joylashgan Mirzo Ulug'bek rasadxonasidir.





*Rasadxona – yulduzlar va osmon jismlari harakati kuzatiladigan inshoot, astronomiya fanida observatoriya deyiladi.*



Mirzo Ulug'bek – Sohibqiron Amir Temurning suyukli nabirasi, Sharq Uyg'onish davrining eng yorqin namoyandalaridan biri, jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk alloma va davlat arbobi. Uning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lgan. Amir Temur «Ulug' begim» deb erkalagani uchun Mirzo Ulug'bek degan nom bilan mashhur bo'lib ketgan.

Rasadxona XIV asrda Mirzo Ulug'bekning farmoniga muvofiq barpo etilgan. Uning binosi uch qavatdan iborat bo'lib, diniy jaholat, notinchlik hukm surgan davrlarda buzilib ketgan. Hozirgi kunda faqat sekstant deb ataladigan, qo'sh yoydan iborat quyi qismi saqlanib qolgan.



**Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2010-yilda rasadxona yonida Mirzo Ulug'bek muzeyi barpo etildi.**






Muzeyning keng va yorug‘ zali bo‘ylab aylanar ekanmiz, avvalo, Amir Temur va temuriylarning jahon tarixidagi o‘rni haqida hikoya qiladigan lavhalar, mazkur sulola davrida tarixiy shaharlarimizda barpo etilgan me‘moriy obidalar bilan tanishamiz. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiyning «Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek, Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek» degan mashhur she‘riy satrlarini o‘qiymiz. Mirzo Ulug‘bekning astronomiya maktabi, ilm-fan sohasidagi buyuk kashfiyotlari, uning «Ziji jadidi Ko‘ragoniy», ya‘ni «Ko‘ragoniyning yangi yulduzlar jadvali» kitobi nusxalari ham bizda katta qiziqish uyg‘otadi. Bu kitobda 1018 ta yulduzning joylashuvi aniq ko‘rsatilgani, Mirzo Ulug‘bek qanday asboblarda yordamida ilmiy kuzatishlar olib borgani haqida ma‘lumotga ega bo‘lamiz.



Muzeyda o‘rta asrlarda yashab o‘tgan buyuk polyak astronomi Yan Geveliy tomonidan yaratilgan gravyuraning kattalashtirilgan nusxasi qo‘yilgan. Ushbu asarda Mirzo Ulug‘bek qadimiy afsonalarga ko‘ra astronomiya ma‘budasi, ya‘ni xudosi hisoblangan Uraniyaning o‘ng tomonidan joy olgan. Bu rasmda Mirzo Ulug‘bek Ptolemey, Kopernik, Galileo Galiley kabi jahonning buyuk astronomlari davrasida tasvirlangan. Lekin ulardan faqat bizning ajdodimiz eng ulug‘ martabaga loyiq ko‘rilgan. Mirzo Ulug‘bekning bosh tarafiga «O‘z ishimni munosib avlodlarimga qoldirdim», deb yozib qo‘yilgan. Ya‘ni, buyuk ajdodimizning, mening kashfiyotlarimni kelgusi avlodlarim albatta munosib davom ettiradi, degan ishonch-e‘tiqodi bu so‘zlarda yaqqol aks ettirilgan.

Haqiqatan ham, bugungi kunda yosh olimlarimiz ulug‘ allomaning ishlarini munosib davom ettirmoqda. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Astronomiya institutida va unga qarashli bo‘lgan Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan Maydanak observatoriyasida



osmon jismlarini o‘rganish bo‘yicha samarali ish olib borilmoqda. Ana shunday kuzatishlar natijasida 2010-yilda yangi kichik sayyora kashf etildi. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning taklifi bilan mazkur sayyora «Samarqand» deb nom berildi.

Mirzo Ulug‘bekning buyuk kashfiyotlari hozirgi kunga qadar dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. Buni quyidagi hayotiy voqea ham tasdiqlaydi.

## KOMPYUTERNING XATOSI

Prezidentimiz Islom Karimov 1996-yili Parijda YUNESKO Bosh kotibi Federiko Mayor bilan bo‘lgan suhbatni eslab, yozadi: **«O‘shanda janob Mayor Ulug‘bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko‘rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga javoban, yo‘q, janob Federeko Mayor, Ulug‘bek xato qilgan bo‘lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo‘lishi mumkin, degan edim. Garchi bu gap do‘stona lutf tariqasida aytilgan bo‘lsa-da, o‘ylaymanki, uning zamirida chuqur haqiqat mujassam»<sup>1</sup>.**

Muzeyda ana shu so‘zlarni ham o‘qishimiz mumkin.



*Aziz o‘quvchi, sizningcha, inson ko‘p xato qiladimi, kompyutermi?*

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 46–47-betlar.

Mirzo Ulug‘bek muzeyidan chiqar ekanmiz, uning shimol tara-  
fidagi go‘zal maydonda alloma bobomizning muazzam haykali qad  
roslab turganini ko‘ramiz.

Bu yerdagi tomoshadan so‘ng Samarqand shahrining markazida,  
Registon maydonida joylashgan, XIV asrda Mirzo Ulug‘bek qurdirgan  
va ko‘p yillar talabalarga dars bergan Ulug‘bek madrasasini borib  
ko‘rishimiz mumkin. Shunda buyuk ajdodimiz haqida yanada keng  
tasavvurga ega bo‘lamiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz kechasi yulduzli osmonni kuzatganmisiz?
2. Yulduzlar haqida bilishga qiziqasizmi?
3. Mirzo Ulug‘bek rasadxonani nima uchun tepalik joyga qurgan?
4. Mirzo Ulug‘bek haykali qaysi rasmda aks ettirilgan?



1



2



3

5. Maydanak observatoriyasi qayerda joylashgan?



---

## O‘ZBEKISTON DAVLATI

Aziz o‘quvchi, dunyodagi har bir xalqning orzu-intilishlari, xohish-irodasini amalga oshirish, uning manfaatlarini himoya qilishda davlat juda muhim ahamiyatga ega.



*Davlat xalqning o‘z manfaatlarini o‘ylab tuzgan, vakolat bergan idora asosida boshqarish usulidir.*

O‘zbekiston hududida miloddan oldin, ya’ni hozirgi yil hisobi boshlanmasidan avvalgi qadimiy davrlarda ham davlatlar bo‘lgan. Buni qanday bilamiz? Zardushtiylik ta’limotining bosh kitobi bo‘lmish «Avesto» bundan qariyb uch ming yillar oldin bizning yurtimizda, bugungi Xorazm zaminida yaratilgan. Demak, «Avesto» miloddan oldingi VIII–VII asrlarda yozilgan. Bu kitobda o‘sha davrlarda odamlar uyushib yashagani, ularning orasidan hukmdorlar saylangani, qal’a-qo‘rg‘onlar qurilgani haqida aytiladi. Bularning barchasi esa biz hozir yashab turgan zaminda milliy davlatchilik bo‘lganini bildiradi.

Vatanimiz poytaxti – Toshkent shahrida «O‘rda» degan joy bor. Qadimda xonlarning saroyi joylashgan joy o‘rda deyilgan. Demak, Toshkent shahridagi bugungi «O‘rda» mavzesida qadimda xon saroyi bo‘lgan.



*O‘rda o‘rta so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lib, o‘rtaliqdagi joy, markaz degan ma’noni bildiradi.*

Samarqand shahridagi Ko‘ksaroy Sohibqiron Amir Temur bobomizning qarorgohi bo‘lgani, Buxoro, Xiva va Qo‘qon shaharlaridagi Ark va O‘rda binolari, yurtimizning turli hududlarida saqlanib qolgan qal’a, qo‘rg‘on qoldiqlari ham qadimiy davlatchiligimizning tarixiy timsollaridir.



**Mamlakatimiz hududida qadimda So‘g‘d, Baqtriya (Boxtar zamin), Parkana, Xorazm, Kushon, Turon, Turkiston, Movarounnahr, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazm davlatlari rivoj topgan.**

XIV asrda esa Sohibqiron Amir Temur qudratli davlatga asos solganini siz avvalgi darslarimizdan yaxshi bilasiz. Afsuski, Amir Temur bobomiz vafotidan so‘ng bu davlat kichik-kichik xonliklarga bo‘linib ketadi. Ular o‘rtasida o‘zaro adovat va kurash avj oladi. Buning oqibatida chetdagi bosqinchi kuchlar yurtimizga tajovuz qiladi. Dashti qipchoqdan kelgan qo‘shin, Eron lashkari, XIX asrda esa chor Rossiyasi armiyasi yurtimizni bosib oladi.

1917-yil oktabr oyida Rossiyada bolsheviklar partiyasi davlat to‘ntarishi qilib, hokimiyat tepasiga kelgach, yurtimizda mustamlakachilik zulmi yanada kuchaydi. Bolsheviklar hukumati 1924-yilda O‘rta Osiyo hududida milliy chegaralash tadbirlarini o‘tkazdi. Unga ko‘ra, Vatanimizning hozirgi hududida O‘zbekiston sovet sotsialistik respublikasi tashkil etildi.

Yurtimiz bu davrda nomigagina «respublika» deb atalar edi. U aslida qaram respublika edi. Faqat 1991-yil 31-avgustda Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida o‘z mustaqilligimizga erishganimizdan so‘ng biz tom ma‘noda milliy davlatimizga ega bo‘ldik.



**Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosi**



**O‘zbekiston 1992-yil 2-martda jahondagi davlatlarning xalqaro uyushmasi – Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Bugungi kunda u dunyo hamjamiyatining teng huquqli a‘zosisdir.**



*Jahon hamjamiyati deganda, umumiy maqsadlar asosida birlashib harakat qilayotgan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar, jahondagi barcha ezgu niyatli kuchlar tushuniladi.*

O‘zbekiston – dunyoviy davlat. Dunyoviy davlat deganda, xalqning xohish-irodasi bilan qabul qilingan Konstitutsiya va uning asosidagi qonunlarga tayangan holda rivojlanadigan davlat tushuniladi.



**«O‘zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi»<sup>1</sup>.**

Demak, mamlakatimiz rasman «O‘zbekiston Respublikasi», «O‘zbekiston» degan nomlar bilan ataladi. Rasmiy hujjatlarda davlatimizning nomi aynan ana shu tarzda yoziladi va aytiladi. Oddiy nutq jarayonida esa uni «davlatimiz», «mamlakatimiz», «Vatanimiz», «yurtimiz» kabi so‘zlar bilan ham ifoda etishimiz mumkin.

O‘zbekistonning davlat tuzumi, ya’ni davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishining mohiyati asosiy qonunimiz – Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgani uchun davlat tuzumi haqida gap ketganida konstitutsion tuzum degan ibora ham ishlatiladi.

Mamlakatimiz bugungi kunda huquqiy demokratik davlat qurish yo‘lidan bormoqda. Huquqiy demokratik davlatda barcha ishlar qonun asosida olib boriladi.



*Demokratiya yunoncha so‘z bo‘lib, «demos» – xalq, «kratos» – hokimiyat, ya’ni, xalq hokimiyati degan ma’noni bildiradi.*

Huquqiy demokratik davlatda mamlakat hayotiga oid muhim masalalar xalq bilan, uning vakillari bo‘lgan deputatlar bilan maslahatlashish asosida hal etiladi. Ya’ni, bunday davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklari, xalq xohish-irodasi birinchi o‘rinda turadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1-modda. T.: «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014-yil, 4-bet.



Mamlakatimizda hozirgi kunda huquqiy demokratik davlatning barcha belgi va xususiyatlari, tamoyillari shakllanib, takomillashib bormoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan g‘oya ilgari surilgan bo‘lib, buning ma‘nosi shuki, huquqiy demokratik davlat fuqarolik jamiyatini taqozo etadi.



**Fuqarolik jamiyati davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolar va ular tomonidan tuzilgan nodavlat tashkilotlar, o‘zini o‘zi boshqarish idoralari faol ishtirok etadigan jamiyatdir.**

Siz o‘zingiz yashayotgan joydagi mahalla idorasini yaxshi bilasiz. Mahalla o‘zini o‘zi boshqarish idorasi bo‘lishi bilan birga, fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos namunasi hamdir.

Prezidentimizning deyarli barcha nutq va ma‘ruzalarida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning eng muhim masalalari haqida so‘z yuritilib, ularni hal etish bo‘yicha amaliy vazifalar belgilab beriladi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qo‘shma majlisida bayon qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ana shu konsepsiya asosida Konstitutsiyamizga muhim o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi, bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi. Bularning barchasi O‘zbekistonning huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidan izchil va qat‘iyat bilan borayotganini ko‘rsatadi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Mahalla majlislarida sizning oilangizdan kimlar ishtirok etadi?
2. Bu majlislarda nimalar haqida so‘z borishiga qiziqib ko‘rganmisiz?
3. Rasmlardagi qadimiy qal‘a va saroylar nima uchun qurilgan, deb o‘ylaysiz?



4. Davlat bo‘lmasa, odamlar tinch va farovon yashashi mumkinmi?

*Amaliy mashg‘ulot*

## MUSTAQILLIK – AVVALO HUQUQ DEMAKDIR

Aziz o‘quvchi, Vatan ozod va mustaqil bo‘lsagina, uning kuch-qudrati tobora ortib, boyligiga boylik qo‘shilib boradi, bunday o‘lkada yashash haqiqiy baxtga aylanadi. Shuning uchun ona yurt haqida gapirganda, istiqlol mavzusini chetlab o‘tib bo‘lmaydi.



*«Istiqlol» so‘zi mustaqillik degan ma‘noni bildiradi. Mustaqillik esa birovga qaram bo‘lmasdan, o‘z huquqi, ona yurtiga o‘zi egalik qilib, erkin va ozod yashahni anglatadi.*

O‘z taqdirini o‘zi belgilaydigan, bugungi va ertangi hayotini o‘z xalqining xohish-irodasi asosida, uning manfaatlarini ko‘zlab tashkil etadigan, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritadigan, hududi, chegaralarini himoya qilib, fuqarolari hayoti daxlsizligini saqlay oladigan davlatgina haqiqiy mustaqil davlatdir.



*«Istiqlol» so‘zi erkinlik, ozodlik, hurriyat kabi so‘zlar bilan ham ma‘nodoshdir. Suverenitet esa fransuz tilidan olingan so‘z bo‘lib, oliy hokimiyat degan ma‘noni anglatadi. Shuning uchun u ko‘proq hokimiyatning mustaqilligini ifoda etadi.*

Davlat suvereniteti, suveren respublika, xalq suvereniteti kabi iboralar qo‘llanganida, avvalo, hokimiyatga egalik nuqtayi nazaridan mustaqil bo‘lishga urg‘u beriladi.



O‘zbekiston istiqloлга erishgunga qadar SSSR deb atalgan imperiya tarkibida sobiq markazga qaram bo‘lgan o‘n beshta respublikaning biri edi. SSSR zo‘ravonlik bilan, erkin va ozod xalqlarni majburlash asosida tuzilgan davlat edi. U juda katta hududni egallagani, dunyodagi ko‘plab xalqlarni o‘z tazyiqi ostida tutib turgani, davlat ramzlarida qizil rang asosiy o‘rin tutgani uchun kommunistik imperiya yoki qizil imperiya deb atalardi.



*«Imperiya» lotincha so‘z bo‘lib, mutlaq, ya’ni cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan, o‘z tasarrufida ko‘plab mamlakat va xalqlarni majburan tutqunlikda saqlab turadigan yirik tajovuzkor davlat ma’nosini bildiradi.*

Imperiyani, odatda, imperator boshqargan. Lekin sobiq SSSR jozibali g‘oyalar bilan niqoblangani uchun o‘zini «teng huquqli sotsialistik respublikalar ittifoqi» sifatida ko‘rsatishga urinar, uni ana shu g‘oyalarning ijrosini qat’iy nazorat qilib turadigan, «KPSS» deb ataladigan Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi va uning dohiylari boshqarar edi.

Poytaxtimiz Toshkent shahridagi «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyida mustamlakachilik yillarida xalqimiz qanchalik katta qurbon-

lar bergani, ozodlik yo‘li naqadar og‘ir va mashaqqatli bo‘lgani haqida ko‘plab tarixiy hujjatlar mavjud.

Mard va donishmand bobolarimiz bosqinchilarga qarshi faqat qurol emas, balki ma‘rifat bilan ham kurash olib borganlar. Bunga XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati namoyandalarining faoliyati yaqqol misol bo‘ladi.



*«Jadid» arabcha so‘z bo‘lib, yangi degan ma‘noni bildiradi.*

Ma‘rifatparvar bobolarimiz ta‘lim-tarbiya maskanlarini yangicha tashkil etish, teatr, kutubxona, muzeylar ochish, gazeta va jurnallar chop qilish yo‘li bilan xalqimiz hayotini o‘zgartirmoqchi bo‘lganlar. Shuning uchun ular jadidlar deb nom olgan. Jadidlarning asosiy maqsadi odamlarni bilimli va ma‘rifatli qilish orqali yurt ozodligiga erishishdan iborat bo‘lgan. Lekin hurriyat, mustaqillik hech qachon o‘z-o‘zidan kelmaydi. Ma‘rifatparvar bobomiz Munavvar qori Abdurashidxonov bu haqda bunday degan: **«Butun dunyodagi hurriyatchilar orasida bir so‘z bor: hurriyat berilmas, olinur. Hech narsa ila olib bo‘lmas, faqat qon va qurbon ilagina olib bo‘lur. Hazrat Odam Atodan shu vaqtgacha hech bir davlat va mamlakatda hurriyatning berilgani, qon va qurbonsiz berilgani tarixlarda ko‘rilmaydur»<sup>1</sup>.**

Prezident Islom Karimov shu haqiqatni nazarda tutib, **«Ozodlikka faqat kurashib erishiladi»<sup>2</sup>** deb ta‘kidlagan edi.

Davlatning mustaqilligi esa uning xalqi uchun o‘z kelajagini o‘zi belgilash, ozod va erkin, tinch-osoyshta, farovon hayot kechirish huquqini berib, ezgu maqsadlarga erishish yo‘lida ulkan imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham Yurtboshimiz **«Mustaqillik – bu avvalo huquqdir»<sup>3</sup>** deb ta‘kidlaydi.

<sup>1</sup> Vatan va millat muqaddasdir. T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2000-yil, 31-bet.

<sup>2</sup> **Islom Karimov.** Vatan va xalq mangu qoladi. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 17-bet.

<sup>3</sup> O‘sha manba, 19-bet.

Haqiqatan ham, agarda xalqimizning mustaqillikdan oldingi va undan keyingi hayotini solishtirib ko‘radigan bo‘lsak, istiqloq tufayli qanday katta huquqlarga erishganimiz yaqqol ayon bo‘ladi. Ayniqsa, siz kabi millionlab yoshlarning zamonaviy maktablarda ta‘lim-tarbiya olib, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasdan voyaga yetayotgani mustaqil Vatanimizda inson uchun, uning kamoli uchun qanday ulkan sharoitlar yaratilganini ko‘rsatadi. Bunday huquqlar hech qachon qo‘ldan boy berilmasligi, aksincha, yanada mustahkamlanib borishi uchun biz xalqimiz, Vatanimiz oldidagi burchimizni chuqur anglab, ularni sidqidildan ado etishga intilib yashashimiz kerak.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz o‘z huquqingizni bilasizmi? Burchingizni-chi?
2. «Mustaqillik – bu avvalo huquqdir» deganda nimani tushunasiz?
3. Rasmdagi bolalar o‘z huquqlaridan qanday foydalanayotgani haqida gapirib bering.



1



2



3



4

4. Siz o‘z huquqlaringiz mustahkam va doimiy bo‘lishi uchun nima qilish kerak, deb o‘ylaysiz?



---

---

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI

Aziz o‘quvchi, biz ona Vatanimiz – O‘zbekistonimiz, uning mustaqilligi, istiqloq yillarida erishgan yutuqlari haqida gapirganda, bir ulug‘ insonning nomini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. U – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovdir. Bu nom bugungi mustaqil O‘zbekiston davlati nomi bilan shu qadar uyg‘un va mushtarak bo‘lib ketganki, ularni bir-biridan ayri holda tassavvur etib bo‘lmaydi.



**Prezident Islom Karimov yangi O‘zbekiston davlatining asoschisi, biz har kuni bahramand bo‘ladigan barcha ijobiy o‘zgarishlarning tashabbuskoridir.**

O‘lkamizning mustaqillikka erishishi va dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashi, milliy davlatchiligimizning tiklanishi, O‘zbekistonning Konstitutsiyasi, «o‘zbek modeli» degan nom bilan dunyoda tan olingan taraqqiyot yo‘limiz, hayotimizning barcha sohalaridagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida Yurtboshimizning tarixiy xizmatlari beqiyos. Bu buyuk inson sho‘ro tuzumi to‘la hukmron bo‘lib turgan o‘ta og‘ir paytda O‘zbekistonda mustaqillik uchun kurashni boshladi. Sobiq ittifoq respublikalari rahbarlari orasida birinchi bo‘lib yurtimizda prezidentlik boshqaruvini joriy etdi.



*Prezident davlat boshlig‘i, mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi. U O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumxalq saylovi asosida besh yillik muddatga saylanadi.*



**Prezident barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari ta‘minlanishi, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafolatidir. O‘zbekiston Prezidenti mamlakatimizning ichki va tashqi**



**siyosatining asosiy yoʻnalishlarini belgilab beradi, ularni amalga oshirishga rahbarlik qiladi, Oʻzbekiston Respublikasi xalqi nomidan ish yuritadi.**



*Davlat siyosati ichki va tashqi siyosatga boʻlinadi. Ichki siyosat xalqni yagona maqsad yoʻlida birlashtirish, islohotlarni amalga oshirish, yurt tinchligini saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish kabi masalalarga qaratiladi. Tashqi siyosat esa boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, dunyo hamjamiyati bilan doʻstona aloqalar va hamkorlikni rivojlantirishga qaratiladi.*

Siz eski shoʻro davrida amalga oshirilgan har xil tazyiq va zoʻravonliklarni koʻrmagan baxtli avlodga mansubsiz. Oʻsha mashʼum yillarda yurtimiz boyliklari ayovsiz talandi. Bolsheviklar, hatto, buyuk ajdodlarimizning qabrlarini ochib, ularning ruhini bezovta qilishdan ham qaytmadi. Ikkinchi jahon urushi arafasida Sohibqiron Amir Temur va temuriylar qabrlarini ochib koʻrishdi. Amir Temur bobomizning umr yoʻldoshi boʻlmish Bibixonim qabridan tilla buyumlarni, hatto malika momomizning bitta uzugini barmogʻi bilan qoʻshib kesib olishgani tarixdan maʼlum.

Bunday nohaqliklar sovet hokimiyatining soʻnggi yillarigacha goh oshkora, goh yashirin tarzda davom etdi. Oʻtgan asrning 80-yillarida «oʻzbeklar ishi» degan soxta ayblovlar bilan minglab begunoh yurt-doshlarimiz qamalib ketgani ham shunday zoʻravonlik natijasi edi. Sobiq markazdan kelgan Gdlyan, Ivanov degan qonxoʻr tergovchilar boshchiligidagi guruhlar hech bir dalil-hujjatsiz oddiy odamlarning uyiga bostirib kirib, ularni xoʻrlaydi. Hatto, ayollar, qizlarning taqinchoqlarigacha talaydi. Ularni azoblab, oʻzlari toʻqigan soxta hujjatlarga qoʻl qoʻyishga majbur qiladi.

Sobiq markazdagi gazeta-jurnallar esa boʻhton va tuhmat gaplar bilan xalqimizning nomini butun dunyoga yomonotliq qilishga urinadi.

Islom Karimov 1989-yil 23-iyunda Oʻzbekiston rahbari boʻlib ish boshlaganidan soʻng deyarli jar yoqasiga kelib qolgan vaziyatni oʻnglash, yurtimizda adolatni tiklash uchun qattiq kurash olib bordi (bu haqda Yurtboshimizning «Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kito-



bida batafsil yozilgan). Ana shunday kurashlar natijasida minglab begunoh insonlar ozodlikka chiqib, bola-chaqasining bag‘riga qaytdi. Xalqimizning muborak nomi oqlandi, sha‘n-u g‘ururi tiklandi. Yurtdoshlarimiz yana milliy o‘zligi bilan faxrlanib yashash imkoniga ega bo‘ldi.



**1991-yil 31-avgustda Prezident Islom Karimov O‘zbekiston mustaqilligini butun dunyoga e‘lon qildi.**

Davlatimiz rahbarining milliy qadriyatlarimizni tiklash borasidagi xizmatlari ham beqiyos. Yurtboshimizning tashabbusi bilan tilimiz, dinimiz, milliy g‘ururimiz, Navro‘z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti kabi milliy bayramlarimiz qayta tiklandi. Yurtdoshlarimiz haj va umra safarlariga erkin borib keladigan bo‘ldilar. Ilgari nomi ham, asarlari

ham, tarixiy ishlari ham bizdan sir tutilgan ne-ne buyuk ajdodlarimiz yana o'zimizga qaytdi. Ularning qadamjolari obod qilindi. Avvalgi suhbatlarimizda aytilganidek, ko'hna shaharlarimizning tarixiy sanalari xalqaro miqyosda keng nishonlanib, u yerlardagi me'moriy obidalar, osori atiqalar tubdan ta'mirlandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz barcha sohalarda katta yutuqlarga erishib, iqtisodiy qudratimiz, xalqimizning farovonligi, Vatanimizning xalqaro obro'si va nufuzi ortib bormoqda. Shahar va qishloqlarimizning chiroyiga chiroy qo'shilmoqda. Bularning barchasi Prezidentimiz rahbarligida uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir.

Ayniqsa, 1997-yili Yurtboshimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilib, qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatimizda 12 yillik umumiy majburiy, bepul ta'lim tizimini joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Sobiq tuzum davrida maktablarimiz, bolalar bog'chalarini, hatto, ozgina ta'mirlash uchun ham pul topilmas edi. Mustaqillik yillarida, xususan, 2004–2009-yillarda yurtimizdagi 1000 ga yaqin umumta'lim maktabi tubdan rekonstruksiya qilindi yoki ularning ko'pi yangitdan qurildi. Shuningdek, mamlakatimizda 1500 dan ortiq litsey va kollej, 69 ta oliy o'quv yurti – universitetlar, institutlar, akademiyalar yoshlarimizning chuqur bilim va malaka olishi uchun xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning milliy davlatchiligimizni tiklash, xalqimiz hayotining barcha sohalarini isloh etish yo'lidagi xizmatlari benihoya ulkan bo'lib, ularning barchasini nomma-nom sanab o'tishning imkoni yo'q, albatta. Shuning uchun Prezident Islom Karimovning nomi mustaqil davlatchiligimiz, ona Vatanimiz timsoliga aylanib ketgan.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz televizorda Prezidentimizning so'zlarini eshitganmisiz?
2. Davlatimiz rahbarining qaysi so'zlari esingizda qolgan?
3. Siz, Yurtboshimiz orzu qilganidek, fanlarni, xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan, sog'lom va barkamol inson bo'lishga harakat qilasizmi? Aynan qanday harakat qilasiz?

4. Rasmlarga qarab, davlatimiz rahbarining yoshlarga e'tibori haqida gapirib bering?



1



2



3

*Amaliy mashg'ulot*

## IMOM BUXORIY YODGORLIK MAJMUASI

Aziz o'quvchi, mamlakatimizda buyuk qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar haqida gap ketganida, yurtdoshlarimiz ham, chet ellik sayyohlar ham Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini birinchilar qatorida tilga oladilar. Bu noyob obida Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Xartang qishlog'ida joylashgan.



**Imom Buxoriy butun islom dunyosida muhaddislar sultoni deb tan olingan.**

Bu ulug' zotning qabri, azim Samarqand shahridan shimolda, bor-yo'g'i o'ttiz chaqirimcha uzoqlikda joylashganiga qaramasdan, sobiq SSSR davrida ko'p yillar davomida qarovsiz qolib kelgan. Bu yerda ulug' aziz-avliyoning qabri borligini hech kim xayoliga ham keltirmagan. Keyinchalik bir tasodif tufayli Imom Buxoriyning qabri aniqlanib, u yerda ko'rimsiz maqbara qurilgan.



«Hadis» arabcha so'z bo'lib, xabar, yangilik degan ma'no-larni, Muhammad alayhissalomning aytgan so'zlari, qilgan ishlari va ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlarni bildiradi.

Imon Buxoriy qadamjosi faqat mustaqillikka erishganimizdan so'ng har tomonlama obod bo'lib, hozirgi muhtasham ko'rinishda qaytadan bunyod etildi.



*«Muhaddis» arabcha soʻz boʻlib, hadis rivoyat qiluvchi, hadislarni toʻplash, saralash va sharhlash bilan shugʻullanadigan allomani anglatadi.*

Dastlab, 1997-yilning dekabr oyida Prezidentimiz Islom Karimov huzurida Imom Buxoriy majmuasining yangi loyihasi muhokama qilindi. Ana shu yigʻilishda Yurtboshimiz boʻlajak majmuaning ichki va tashqi koʻrinishi, bu yerda barpo etiladigan har bir bino, ularning gumbazlari, darvozalar, hatto, ustunlarning qanday boʻlishigacha quruvchi va mutaxassislariga zarur maslahatlar berdi.

«Imom Buxoriy yodgorlik majmuasidagi bosh nuqta – bu allomaning qabr-maqbarasidir, – deydi Yurtboshimiz muhokama jarayonida. – Butun dunyodan millionlab odamlar avvalo shu qabrni ziyorat qilish uchun, oʻzlarini poklash, ruhiy tozarish va savobga doxil boʻlish uchun keladi. Shuning uchun, mening nazarimda, biz meʼmoriy yechimning markaziga Imom Buxoriy qabr-maqbarasini qoʻyishimiz zarur».

Davlatimiz rahbari mazkur majmuaning oʻziga xos qiyofaga ega boʻlishi lozimligini qayta-qayta uqtiradi: «Bu yodgorlik timsolida otabobolarimizdan meros boʻlib kelayotgan meʼmoriy anʼanalar, sharq falsafasining yuragi boʻlgan Samarqand, Buxoro, Xivaning tarixiy obidalarida aks etgan beqiyos binokorlik uslublari yaqqol ifoda topishi zarur».

Ana shu yigʻilishda majmuaning binokorlik materiallari qanday boʻlishi lozimligi haqida ham soʻz yuritilib, bu borada ham aniq va puxta koʻrsatmalar beriladi: «Bizda azaldan tarixiy-meʼmoriy obidalar pishiq gʻishtdan barpo etilgan. Bunda tabiiy iqlim sharoitlarimiz, tashqi muhit taʼsiri har tomonlama hisobga olingan. Imoratlarining devorlarigina emas, hovlilar, masjid-madrasalarning sahnilari ham pishiq, yaʼni «musulmoni» gʻisht bilan qoplangan. Imom Buxoriy majmuasini qurishda biz ham shunday qilishimiz kerak».

Prezidentimiz otabobolarimiz barpo etgan qadimiy binolarning eng asosiy jihatlari eʼtibor qaratib, fikrini davom ettiradi: «Birinchi – gʻisht, ikkinchi – ustun. Milliy imoratsozligimizning ikki



**Imom Buxoriy  
maqbarasi**

asosiy tayanchi shu. Shuning uchun ham, Imom Buxoriy masjid-maqbarasi majmuasida «musulmoni» gʻishtdan topib ishlatasizlar. Yana bir taklif shuki, maqbaraning ikki tomonida oldi ochiq katta bahavo ayvon qurish haqida oʻylab koʻrish zarur. Ayvonga yetmish toʻrtta oʻymakor ustun yasab oʻrnatilsa, u betakror qiyofa kasb etgan boʻlur edi. Ustunlarning sifatiga, ayniqsa, yogʻochiga alohida eʼtibor berish kerak. Chinor, archa, yongʻoq va gujum kabi mahalliy daraxtlardan boʻlsa yanayam yaxshi. Ustunlarning bir qismini Xorazm ustalariga, bir qismini Samarqand va Buxoro ustalariga, yana bir qismini fargʻonalik ustalarga buyurtma berish kerak. Ayvon shiftlarini bezash ishlarida ham barcha viloyatlarning ustalari ishtirok etsa, bu chinakam umum-milliy va umumxalq yodgorligi boʻladi».

Meʼmorlar, quruvchilar va ustalar Prezidentimizning soʻzlaridan ilhomlanib, katta kuch-gʻayrat bilan ishga kirishdilar. Ana shu fikr-mulohazalar asosida Imom Buxoriy majmuasi loyihasining butunlay yangi namunasi yaratildi. Keyinchalik ham Yurtboshimiz bu mavzuga bir necha bor qaytib, har safar yangi-yangi taklif-mulohazalar bilan loyihani toʻldirib, boyitib bordi. 1998-yilning yozida esa qurilish maydoniga tashrif buyurib, amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi, quruvchi va mutaxassislar bilan fikrlashib, qimmatli yoʻl-yoʻriq va maslahatlar berdi.



## YAXSHILIKNING MUKOFOTI

Nihoyat, 1998-yilning oktabr oyida majmua qurib bitkazildi. U 23-oktabrda Imom Buxoriyning 1225 yillik tavallud sanasi sharafiga tantanali ravishda ochildi. O'sha kuni ulug' ajdodimizning tavallud ayyomi munosabati bilan dunyoning turli mamlakatlaridan bu yerga tashrif buyurgan nufuzli mehmonlar – taniqli diniy ulamolar, ilm-fan va madaniyat arboblari, xalqaro tashkilotlarning vakillari, yurtdoshlarimiz huzurida davlatimiz rahbari nutq so'zladi. Ayniqsa, Yurtboshimizning mana bu so'zlari barcha yig'ilganlarning qalbiga, yuragiga muhrlanib qoldi:



**«Muqaddas qur'oniy oyatda ta'kidlanganidek, «Yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir...**

**...Ozodligimizning dastlabki yillaridanoq biz Imom Buxoriy maqbarasini ul zotning sha'n-shavkatiga munosib, yon-atrofi munavvar go'shaga, ziyoratga kelgan mo'min-musulmonlarga ruhiy-ma'naviy kuch ato etadigan qadamjoga aylantirishni niyat qilgan edik. Olohning inoyati bilan ezgu niyatimiz ijobat bo'lgan shu qutlug' kunda men bu muazzam yodgorlik majmuasining shunchaki ziyoratgoh emas, balki go'zal O'zbekistonimizni butun dunyoga tanitadigan, yosh avlodimizni ezgulik ruhida tarbiyalaydigan, har bir insonni hayot va abadiyat haqida o'ylantiradigan aziz maskan bo'lib qolishiga ishonaman»<sup>1</sup>.**

Haqiqatan ham, bu noyob obida xalqimiz, Vatanimizning ulug' muhaddis farzandiga, uning ruhi pokiga yuksak hurmat-ehtiromining amaliy ifodasi bo'ldi.



**Imom Buxoriy majmuasining umumiy maydoni 10 gektarni tashkil etadi. Katta darvozadan ichkariga kirishingiz bilan Imom Buxoriy bobomizning muazzam maqbarasi ko'zga tashlanadi. U moviy gumbazli, qimmatbaho toshlar, sharqona**

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1998-yil, 444-, 450-betlar.

naqshlar bilan bezatilgan. Maqbaraning ikki tomonida oldi ochiq, yetmish to'rtta o'ymakor ustundan iborat katta bahavo ayvon qurilgan.

Chinor, archa, yong'och va gujum daraxtlaridan yasalgan ayvon ustunlarini xorazmlik, samarqandlik, buxorolik va farg'onalik ustalar yasagan. Ayvon shiftlarini bezashda ham mamlakatimizning barcha viloyatlaridan mohir usta va naqqoshlar ishtirok etgan. Shu tariqa Imom Buxoriy majmuasi, haqiqatan ham, umummilliy va umumxalq ahamiyatiga molik yodgorlik sifatida bunyod etildi.

Hozirgi kunda bu maskanga yurtimizdan, jahondagi musulmon mamlakatlardan yuzlab, minglab insonlar ziyoratga keladilar. Ular Imom Buxoriy bobomiz xotirasini yod etib, mazkur majmuani katta qiziqish bilan tomosha qiladilar.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz birona hadisni yod bilasizmi?
2. Imom Buxoriy qadamjosi sobiq tuzum davrida nima uchun qarovsiz qolib ketgan, deb o'ylaysiz?
3. Imom Buxoriy maqbarasini rasmlardagi Amir Temur va Imom Moturidiy maqbaralari bilan solishtirib ko'ring, ularning gumbazlari, naqshlarida qanday o'xshashlik hamda farq bor?



1



2



3

---

## VATANIMIZ TIMSOLLARI

Aziz o'quvchi, insonlar dunyodagi narsa-hodisalarni, ularning xususiyat va belgilarini aniq ifodalash, yaxlit tasavvur etish uchun turli timsollardan foydalanadi. Timsollar shakli, ma'no-mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Qadim zamonlarda odamlar xudolarni o'zlaricha tasavvur etib, har xil haykalchalar, but va sanamlar yasaganlar. Ularda xudolar goh odam, goh farishta shaklida tasvirlangan. Ayniqsa, badiiy adabiyotda timsollar juda ko'p. Masalan, biz o'qigan she'r, hikoya yoki ertaklarda onalar quyoshga, chiroyli qizlar oyga, mard yigitlar arslonga, ularning uchqur tulporlari esa shamolga yoki chaqmoqqa o'xshatiladi. Bularning barchasi badiiy timsollar deyiladi.



*Timsol biror-bir narsaning o'xshashi, uning ma'no-mazmuni mujassam bo'lgan ramziy ifodasidir.*

Dunyodagi eng ulug' va aziz qadriyat bo'lgani uchun Vatanning ham timsoli ko'p. Vatanning timsollari rasmiy va norasmiy, tarixiy yoki zamonaviy bo'lishi mumkin. Mamlakatimizning davlat ramzlari – bayrog'imiz, gerbimiz va madhiyamiz rasmiy timsollar hisoblanadi. Shuningdek, Prezident, parlament, hukumat, Konstitutsiyamiz, davlat tili, poytaxtimiz, milliy valyutamiz ham davlatchiligimizning eng muhim belgilari, timsollaridir.



**Rasmiy timsollarning ma'no-mazmuni, maqomi mamlakat Konstitutsiyasi va tegishli qonunlarda belgilab qo'yiladi. Ular Vatanimizning sha'ni va g'ururi, mustaqilligi va suverenitetining ramzi sifatida qonun bilan himoya qilinadi. Ularni bilish va hurmat qilish, ko'z qorachig'idek asrash har bir fuqaroning burchi hisoblanadi.**



Vatanning muqaddas timsollari xalqni birlashtirib, uni yagona maqsad sari safarbar etib yashashga, har qanday sharoitda ham o'z yurti manfaatlarini uchun kurashishga da'vat etadi.



**O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan.**

Bayroqdagi moviy rang tiriklik, hayot ifodasi bo'lgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Oq rang tinchlik ramzi, xalqimizning oliyjanob va ezgu intilishlari mujassamidir. Yashil rang esa tabiatning yangilinish ramzi. U qadim-qadimdan navqironlik, umid, shod-u xurramlik timsoli hisoblangan. Bayroqdagi qizil chiziqlar xalqimiz vujudidagi kuch-g'ayrat va qudrat belgisi. U mustaqillik yo'lidagi kurashlarni ham anglatadi. Yarim oy tasviri xalqimizning islom dini an'analariga sodiqligi bilan bog'liq bo'lib, u yangi hayot, ya'ni mustaqillikni ifoda etadi. Bayroqdagi o'n ikki yulduz falakdagi o'n ikki burjni bildiradi.



**O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan.**

Gerbning chap tomonida bug'doy boshlari, o'ng tomonida esa ochilib turgan g'o'za shoxlari bayrog'imiz tasviri tushirilgan tasma bilan o'ralgan. Gerbning o'rtasida uzoqdagi tog'lar va daryolarga tutash vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sohib turibdi. Gerbning yuqori qismida sharqda musamman deb ataladigan sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. Musammanning ichida yarim oy va yulduz aks

etgan. Gerbning old qismida, markazda qanotlarini yoygan Humo qushi turibdi. Gerbning pastki qismida O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘ini ifoda etadigan tasma o‘rtasiga «O‘zbekiston» deb yozib qo‘yilgan.



*Aziz o‘quvchi, do‘konda ikkita chiroyli futbolka turibdi. Bittasiga davlatimiz gerbi, ikkinchisiga esa xorijlik mashhur futbolchining rasmi tushirilgan. Siz ularning qaysisini tanlagan bo‘lardingiz?*



**O‘zbekiston madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, uning matnini O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, musiqasini esa kompozitor Mutavakkil Burhonov yaratgan.**

Davlatimiz madhiyasida Vatanimizning betakror go‘zalligi, xalqimizning oliyanob fazilatlarini, mustaqilligimizning abadiyligi, yorug‘ kelajagimiz, yosh avlod Vatanning tayanchi ekani madh etiladi.



**O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan har bir inson davlatimiz madhiyasini yoddan bilishi va uning ma‘nosini chuqur tushunib, kuylay olishi kerak.**

Dunyoda norasmiy timsollar ham ko‘p. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlari deganda, Ozodlik monumentini, Fransiya deganda, Eyfel minorasini, Xitoy Xalq Respublikasi deganda, Buyuk Xitoy devorini, Hindiston deganda, Tojmahal yodgorligini eslaymiz. Bizning yurtimiz haqida gap ketganda esa, ko‘pchilik Samarqand, Buxoro va Xiva, Toshkent kabi ko‘hna shaharlarimizni, Registon, Ark, Hazrati Imom kabi me‘moriy yodgorliklarni, Buxoriy, Termiziy, Xorazmiy, Samarqandiy, Toshkandiy kabi nomlar bilan dunyoga tanilgan buyuk allomalarimizni ko‘z oldiga keltiradi.

Yurtdan olisda yurib, uni sog‘insak, o‘lkamizning shirin-shakar mevalarini, go‘zal shahar va qishloqlarini, sodda va kamtarin insonlarini yodga olamiz. Shularning barchasi timsolida jondan aziz Vatanimizni ko‘rgandek bo‘lamiz.

## VATAN SOG'INCHI

Taqdir taqozosi bilan Hindiston tuprog'ida yashab, bu o'lkada qudratli davlatga asos solgan Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz doimo ona yurt sog'inchi bilan yashagan. Bu ulug' zot uchun qadrdon diyordan olib kelingan, uni eslatadigan har qanday narsa Vatan timsoli bo'lib ko'rinadi. Uning o'zi yozi-shicha, yurtimizdan olib borilgan qovunni hidlab, yosh boladek yum-yum yig'lagan ekan. Chunki, ana shu lahzada ul zot Vatanning hidini tuygandek bo'ladi, olis bolalik yillari o'tgan damlarini qo'msaydi. Vatanga qarab chopgisi, bamisoli qanot bog'lab uchgisi keladi. Afsuski, yo'lning uzoqligi, hind diyorida davlat ishlari bilan muttasil bog'lanib qolgani uchun yuragida zildek armon bo'lib yotgan bu orzuni amalga oshirishning imkoni topilmaydi.

Vatanimizning tarixiy timsollari deganda, qadimiy shaharlarimiz va asrlar davomida ularning ramzi bo'lib kelayotgan obidalarni ko'z oldimizga keltiramiz. Zamonaviy timsollar esa bugungi davrning ruhini, xalqimizning hozirgi kundagi orzu-intilishlarini aks ettiradi. Masalan, ko'hna Buxoro markazidagi Minorai Kalon yodgorligi ko'p yillar davomida shaharning o'ziga xos timsoli bo'lib kelgan. 2010-yili Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilgan «Ko'hna va boqiy Buxoro» monumenti esa ushbu muqaddas zaminning badiiy yo'l bilan yaratilgan zamonaviy timsoliga aylandi.

Buyuk Sohibqiron bobomiz Shahrisabzdagi muhtasham Oqsaroyini o'z kuch-qudratining bezavol timsoli sifatida bunyod ettirgan. Shu bois uning peshtoqiga «Kimki bizning kuch-qudratimizga shubha qilsa, qurdirgan binolarimizga boqsin» degan so'zlarni yozdirib qo'ygan. 1996-yili bu obidaga tutash maydonda Amir Temur bobomiz haykali o'rnatildi. U shaharning zamonaviy timsoliga aylandi.

Yoki Samarqanddagi Shohi-zinda, Bibixonim, Registon yodgorliklari qatoriga istiqloq yillarida Imom Buxoriy, Imom Moturidiy majmualari va boshqa ko'plab obidalar qo'shilgani yurtimizda qadimiy timsollarimizni asrab-avaylash bilan birga, xalqimizning bugungi orzu-intilishlari, bunyodkorlik ishlarining yorqin ifodasi bo'lgan zamonaviy timsollarni yaratishga ham katta e'tibor berilayotganini



ko'rsatadi. Masalan, Vatanimiz poytaxti Toshkent shahridagi Mustaqillik maydonida barpo etilgan Ezgulik arkasi, Mustaqillik va ezgulik monumenti xalqimizning yuksak orzu-intilishlari timsollari hisoblanadi. Biz bu timsollarning har birida, tomchida quyosh aks etganidek, Vatanimizning go'zal va maftunkor qiyofasini ko'ramiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz o'z shahringiz yoki qishlog'ingiz timsolini nimalarda ko'rasiz?
2. Xorijlik mehmonlarga O'zbekiston ramzi sifatida nimani sovg'a qilgan bo'lardingiz?
3. Davlatimiz madhiyasini kuylab bering.
4. Rasmlar orasidan tarixiy va zamonaviy timsollarni ajrating.



### *Amaliy mashg'ulot*

## O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI

Aziz o'quvchi, O'zbekiston Konstitutsiyasi Vatanimiz mustaqilligining buyuk timsollaridan biri, har bir vatandoshimizning huquq va erkinliklarini huquqiy jihatdan kafolatlaydigan davlatning bosh hujjatidir. Yurtimizda qabul qilinadigan barcha qonunlar Konstitutsiyamiz asosida tayyorlanadi va tasdiqlanadi, hayotga joriy etiladi. Shuning uchun Konstitutsiyani Asosiy qonunimiz deb ataymiz.



*«Konstitutsiya» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, o'rnatish, tuzilish degan ma'nolarni anglatadi. Hozirgi kunda inson, davlat va jamiyatning huquq va majburiyatlarini har tomonlama tartibga soladigan, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, boshqa qonunlarga asos, mamlakat mustaqilligining kafolati bo'lib xizmat qiladigan qonun hujjati ma'nosida ishlatiladi.*



**Konstitutsiya, hajmiga ko‘ra uncha katta bo‘lmasa-da, mamlakatimizning siyosiy qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, davlat va fuqaroning, jamiyat tuzilmalarining barcha huquq hamda majburiyatlariga oid masalalarni qamrab olgani, ularning huquqiy negizini belgilab bergani uchun uni hayotimizning bosh qomusi deymiz.**



Konstitutsiyamiz xalqimiz, davlatimiz, jamiyatimiz hayoti, taraqqiyotida shu qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lgani uchun uni har birimiz chuqur o‘rganishimiz, hayotda, o‘qishda, ishda uning talablariga amal qilib yashashimiz kerak. Bu – barchamizning fuqarolik burchimiz.

Konstitutsiya – davlatning huquqiy asosi, poydevori. Bu asosni qo‘ygan, mustahkamlagan, ya’ni Konstitutsiyamizni ishlab chiqish va yanada takomillashtirishning asosiy tashabbuskori Prezidentimizdir.



**O‘zbekiston Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan.**

Ana shu sana mamlakatimizda har yili Konstitutsiya kuni sifatida bayram qilinadi. Bu bayram arafasida Yurtboshimiz Oqsaroy qarorgohida Vatanimizning yuksak unvonlari, orden va medallari bilan taqdirlangan yurtdoshlarimizga ushbu mukofotlarni tantanali ravishda topshiradi. Bunday tadbirlar poytaxtimiz Toshkent shahrida, viloyatlarimizda ham bo‘lib o‘tadi.



**Konstitutsiyamizning 13-moddasiga binoan, «inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi»<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014-yil, 6-bet.



*Yuqorida zikr etilgan marosimlarning aynan Konstitutsiya bayrami kunlarida o'tkazilishini «inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi» degan qoida bilan bog'lab tushuntiring.*

O'sha kunlari Toshkent shahridagi «O'zbekiston» anjumanlar saroyida Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan yana bir katta marosim o'tkaziladi. Unda Prezidentimiz Islom Karimov ma'ruza qilib, mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida Konstitutsiyaning ahamiyati beqiyos ekani, Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan maqsad-vazifalarni amalga oshirishda xalqimiz qanday yutuqlarga erishgani, shu bilan birga, oldimizda turgan dolzarb masalalar bo'yicha yangi fikr va g'oyalarni bayon qiladi.

Yurtimizda 1997-yildan buyon har bir yilga alohida nom berib kelinmoqda. Har bir yil bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu ishlarning asosi, rejasi, ularni amalga oshirish yo'l-yo'riqlari ham aynan Konstitutsiya kunida belgilab olinadi.



**O'zbekiston Konstitutsiyasi «Muqaddima», 6 ta bo'lim, 26 ta bob, 128 ta moddadan tashkil topgan.**

Konstitutsiyamizda yurtimizda yashayotgan bironta inson, ijtimoiy guruh va qatlamning manfaati, huquq va erkinliklari e'tibordan chetda qolmagan. Shuning uchun ham uni butun jamiyatimizni birlashtirishga xizmat qiladigan umummilliy hujjat, xalqimiz tafakkurining noyob namunasi deb ataymiz. Jumladan, siz kabi mamlakatimiz yoshlarining huquq va manfaatlari ham Asosiy qonunimizda o'z aksini topgan. Masalan, «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi» (41-modda), «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» (65-modda) kabi bir qancha qoida va me'yorlar aynan shundan dalolat beradi.



**Biz Vatanimizni chin dildan sevadigan, unga sadoqat va fidoyilik bilan yashaydigan ongli fuqaro bo'lish uchun Konstitutsiyamizni, uning asosida qabul qilingan qonunlarni yaxshi bilishimiz kerak. Bu bizga hayotda to'g'ri yo'lni tanlash, turli muammolarni oqilona hal qilishda yordam beradi.**

Asosiy qonunimiz biz uchun azm-u shijoat, g‘urur-iftixor manbayidir. Uning har bir moddasini o‘qiganda, u bergan imkoniyatlardan foydalanib, o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarga erishganda biz qanday ulug‘ xalq, buyuk Vatanning farzandi ekanimizni yurak-yurakdan his etamiz. Yanada yuksak marralarni ko‘zlab yashashga harakat qilamiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz o‘zingizning bepul ta‘lim olish huquqingizdan qanday foydalanaysiz?
2. Yana qanday huquqlaringizni bilasiz?
3. Siz Konstitutsiyamizni o‘rganishni istaysizmi?
4. Rasmlarga qarab, Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan inson huquqlari haqida gapirib bering.



1



2



3



4



# TAKRORLASH

## «O‘ZBEKISTON DEYA ATALUR» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOLLAR



1. O‘zbekiston qaysi mintaqada joylashgan?
2. Davlatimiz qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh?
3. O‘zbekistonning umumiy yer maydoni qancha?
4. Mamlakatimiz hududidan qanday katta daryolar oqib o‘tadi?
5. Yurtimiz hududi qaysi tog‘lar bilan o‘ralgan?
7. Rasmlarga qarab, yurtimizda qanday avtomobil zavodlari borligini ayting.



### TESTLAR

#### 1. O‘zbekiston qaysi mintaqada joylashgan?

- |                    |                    |
|--------------------|--------------------|
| A) Janubiy Osiyo   | C) Markaziy Osiyo  |
| B) Sharqiy Yevropa | D) Lotin Amerikasi |

#### 2. O‘zbekiston janubi-sharqda qaysi mamlakat bilan chegaradosh?

- |                          |                 |
|--------------------------|-----------------|
| A) Ozarboyjon            | C) Tojikiston   |
| B) Rossiya Federatsiyasi | D) Turkmaniston |

#### 3. Davlatimizning umumiy yer maydoni necha kvadrat kilometrni tashkil etadi?

- |                                  |                                  |
|----------------------------------|----------------------------------|
| A) 300 ming kvadrat kilometr     | C) 447 ming 400 kvadrat kilometr |
| B) 749 ming 329 kvadrat kilometr | D) 942 ming 23 kvadrat kilometr  |

**4. Mamlakatimiz hududidan Markaziy Osiyoning qaysi katta daryolari oqib o'tadi?**

- A) Oqdaryo va Qoradaryo  
B) Qashqadaryo va Surxondaryo  
C) Amudaryo va Sirdaryo  
D) Volga va Dnepr

**«O'ZBEKISTON XALQI» MAVZUSI  
BO'YICHA SAVOLLAR**



1. «Xalq» so'zining ma'nosini tushuntiring.
2. «O'zbekiston» so'zi qanday ma'noni bildiradi?
3. «O'zbek xalqi» va «O'zbekiston xalqi» degan so'zlar bir xil ma'noni anglatadimi?
4. Yurtimizda qancha millat va elat vakillari yashaydi?
5. Asosiy Qonunimizda O'zbekiston xalqi haqida nima deyilgan?
6. Rasmlarga qarab, o'zbek xalqining dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri ekani haqida gapirib bering.



**TESTLAR**

**1. O'zbekiston xalqi deganda kimni tushunamiz?**

- A) O'zbeklarni  
B) Yurtimiz mehnatkashlarini  
C) Shahar va qishloq aholisini  
D) Millatidan qat'i nazar, barcha O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini

**2. «Xalq» so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

- A) Xaloyiq degan ma'noni  
B) Olomon degan ma'noni  
C) Fuqaro degan ma'noni  
D) Yaratilgan degan ma'noni

**3. O'zbek xalqi deganda kimlarni tushunamiz?**

- A) O'zbekistondagi o'zbeklarni  
B) Xorijdagi o'zbeklarni  
C) O'zbek tilida gaplashadigan aholini  
D) Jahondagi o'zbek millatiga mansub barcha insonlarni




#### 4. Yurtimizda ...dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi.

- A) 130 dan ziyod  
B) 100 dan ziyod  
C) Salkam 50 ta  
D) 200 dan ziyod

### «O‘ZBEKISTON DAVLATI» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOLLAR

- ❓ 1. Mamlakatimiz hududida qadimda qanday davlatlar bo‘lgan?  
2. Amir Temur bobomiz qaysi shaharni o‘z davlatining poytaxti qilib belgilagan?  
3. Amir Temur yurtimizni qanday bosqinchilardan ozod etdi?  
4. Biz qachondan boshlab milliy davlatchiligimizni tiklashga kirishdik?  
5. Dunyo hamjamiyati deganda nimani tushunasiz?  
6. O‘zbekiston qanday davlat?  
7. Rasmlarga qarab, davlatimiz yaratib bergan imkoniyatlar haqida gapirib bering.



#### TESTLAR

#### 1. Qaysi qadimiy kitob yurtimiz hududida yaratilgan?

- A) «Ramayana»  
B) «Don Kixot»  
C) «Mahobxorot»  
D) «Avesto»

#### 2. «O‘rda» so‘zi ... degan ma‘noni anglatadi.

- A) O‘rtaliqdagi joy, markaz  
B) Shahar  
C) Qishloq  
D) Uy

#### 3. Samarqandni qaysi buyuk davlat arbobi o‘z davlatining poytaxti qilib belgilagan?

- A) Abdullaxon  
B) Jaloliddin Manguberdi  
C) Amir Temur  
D) To‘maris

#### 4. O‘zbekiston BMTga a‘zo bo‘lgan sanani belgilang.

- A) 1995-yil 21-mart  
B) 1992-yil 2-mart  
C) 1992-yil 2-iyul  
D) 1991-yil 1-sentabr

## «O‘ZBEKISTON PREZIDENTI» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOLLAR

- ❓
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ismi sharifini to‘liq ayting.
  2. Yurtboshimizning Vatanimiz oldidagi tarixiy xizmatlari haqida nimalarni bilasiz?
  3. 1990-yil 24-mart kuni O‘zbekistonda qanday boshqaruv joriy etildi?
  4. O‘tgan asrning 80-yillarida yurtimizdagi vaziyat nima uchun og‘irlashdi?
  5. 1989-yilda kim O‘zbekiston rahbari sifatida ish boshladi?
  6. Rasmlar orasidan «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» va «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitoblarini topib, ularning muallifini ayting.



①



②



③

### TESTLAR

#### 1. O‘zbekistonda qachon prezidentlik boshqaruvi joriy etildi?

- A) 1991-yil 31-avgust  
B) 1992-yil 8-dekabr  
C) 1990-yil 24-mart  
D) 1993-yil 14-yanvar

#### 2. Yurtboshimiz Islom Karimov qachon O‘zbekiston rahbari sifatida ish boshladi?

- A) 1986-yil  
B) 1990-yil  
C) 1989-yil  
D) 1991-yil

#### 3. Prezident Islom Karimovning mustaqillik arafasidagi O‘zbekiston haqida yozilgan kitobi qanday nomlanadi?

- A) «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch»  
B) «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida»  
C) «Olloh qalbimizda, yuragimizda»  
D) «Ma’naviy yuksalish yo‘lida»

#### 4. Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni

- A) 9-may  
B) 22-iyun  
C) 31-avgust  
D) 8-dekabr

## «VATANIMIZ TIMSOLLARI» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOLLAR

- ❓
1. Sizning o‘zingiz sevgan timsolingiz bormi?
  2. Daftaringiz yoki kitobingiz boshqalarnikidan ajralib turishi uchun qanday belgi qo‘yib qo‘yasiz?
  3. Mamlakatimizning davlat ramzlarini sanab bering.
  4. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i qachon qabul qilingan?
  5. Davlat gerbi-chi?
  6. Davlatimiz madhiyasi matni va musiqasining mualliflari kimlar?
  9. Rasmlarga qarab, Vatanimiz timsollari haqida gapirib bering.



### TESTLAR

#### 1. Mamlakatimizning davlat ramzlari keltirilgan qatorni ko‘rsating.

- |   |                     |
|---|---------------------|
| A) Davlatimiz bayrog‘i,<br>gerbi, madhiyasi | C) Tog‘ va adirlar  |
| B) Daryo va ko‘llar                         | D) Davlat idoralari |

#### 2. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i qabul qilingan sanani toping.

- |                       |                       |
|-----------------------|-----------------------|
| A) 1991-yil 1-sentabr | C) 1992-yil 2-iyul    |
| B) 1992-yil 8-dekabr  | D) 1991-yil 18-noyabr |

#### 3. O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi qaysi sanada qabul qilingan?

- |                        |                       |
|------------------------|-----------------------|
| A) 1997-yil 22-sentabr | C) 1991-yil 18-noyabr |
| B) 1991-yil 31-avgust  | D) 1992-yil 2-iyul    |

#### 4. Davlatimiz madhiyasi matnining muallifini toping.

- |                        |                   |
|------------------------|-------------------|
| A) Mutavakkil Burhonov | C) Cho‘lpon       |
| B) Alisher Navoiy      | D) Abdulla Oripov |

#### 5. Davlatimiz madhiyasi musiqasi muallifini ko‘rsating.

- |                        |                  |
|------------------------|------------------|
| A) Abdulla Oripov      | C) Yunus Rajabiy |
| B) Mutavakkil Burhonov | D) Anor Nazarov  |

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

### ***Birinchi bob. ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM***

Vatan – yagona va muqaddas .....	6
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Mustaqillik maydoni .....	12
Vatanni anglash .....	17
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Tinchlik – bebaho ne‘mat .....	23
Vatan tuyg‘usi .....	27
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Bu muqaddas Vatanda azizdir inson .....	32
Oila – Vatan timsoli .....	37
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Jajji chempionlar .....	42
Vatanga muhabbat .....	46
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Sohibqiron Amir Temur .....	51
Takrorlash.. .....	56

### ***Ikkinchi bob. ONA VATANIMIZ – G‘URUR-IFTIXORIMIZ***

O‘zbekiston deya atalur .....	62
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> O‘zbekiston milliy kutubxonasi .....	67
O‘zbekiston xalqi .....	71
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Mirzo Ulug‘bek muzeyi .....	75
O‘zbekiston davlati .....	80
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Mustaqillik – avvalo huquq demakdir .....	84
O‘zbekiston Prezidenti .....	88
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi .....	92
Vatanimiz timsollari .....	97
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> O‘zbekiston Konstitutsiyasi .....	101
Takrorlash... .....	105

XAYRIDDIN SULTONOV, MURTAZO QARSHIBOYEV

## VATAN TUYG‘USI

**Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinflari  
uchun o‘quv qo‘llanma**

To‘ldirilgan va qayta ishlangan 5-nashri

*Toshkent «Ma‘naviyat» 2015*

Muharrir *B. Umarov*

Rassom *S. Soin*

Musahhihlar: *O. Pardayev, Sh. Hakimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Litsenziya AI №189, 2011-yil 10-mayda berilgan. Bosishga 11.05.2015-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70×90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>, Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 8,19.  
Nashr tabog‘i 6,82. Adadi 444049 nusxa. Buyurtma №15-278.

«Ma‘naviyat» nashriyoti. Toshkent, Taraqqiyot 2-berkko‘cha, 2-uy. Shartnoma № 26–15.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100129. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy, 2015.

## Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.